

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

Oygul AXMEDOV A

FOLKLOR ASARLARINI SAHNALASHTIRISH

(Uslubiy qo'llanma)

TOSHKENT 2018

UDK 39.8

BBK 82.2

A 90

Uslubiy qo`llanma 5151600-Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya) ta'lim yo`nalishi talabalari uchun tayyorlangan. Uslubiy qo`llanmada o`zbek xalqiga xos bo`lgan urf-odat va marosimlarning hududiy o`ziga xos jihatlarini to`g`ri sahnalashtirish va talqin etish uchun uslubiy tavsiyalar berilgan.

Uslubiy qo`llanmadan oliv ta'lim muassasalari o`qituvchilari, malaka oshirish tinglovchilari, shuningdek, mazkur muammoga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Ma'sul muharrir:

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent S.N.Davlatov

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari doktori, professor J.S.Eshonqulov

Dotsent J.Mamatqosimov

Uslubiy qo`llanma O`zDSMI Badiiy, o`quv-uslubiy kengashining 2018 yil 29 martdagি 8/3 sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Dunyo xalqlari ma’naviy xazinasiga benihoya ulkan hissa qo’shgan ijodkor xalqimizning badiiy so‘z sehri o‘ziga jo qilgan ko‘ngil chashmasidan qaynab chiqqan injular bamisoli jo‘sinqin daryoga o‘xshaydi. Xalq qalbining navolari dilrabo qo’shiqlaru, an’ana va marosimlarga aylanib, asrlar davomida ajdodlarimiz badiiy dahosining muhtasham qadriyatlari xazinasini yuzaga keltirgan. Badiiy tafakkurning betakror mo‘jizalarini o‘zida mujassamlashtirgan xalq an’analari, marosim va odatlar, og‘zaki poetik ijodiyot namunalari shu muqaddas zaminda ming yillar mobaynida yashab kelgan ota-bobolarimiz iqtidori va chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o‘laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatdir.

San’at janrlari ichida eng ko‘hnasi va ibtidosi xalq ijodidir. Xalq ijodi-sinkretik xususiyatga ega bo‘lib turli san’at turlariga xos elementlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Xalq ijodi san’ati xalqning shinavandalik iqtidori poydevoriga qurilgan ijodiyoti bo‘lganligi sababidan u ham ko‘hna, ham navqiron san’at yo‘nalishi hisoblanadi. Xalq ijodi san’atining yaratuvchisi xalqdir. Bu san’at xalqdan kuch oladi, ilhomlanadi hamda mavjlanadi. Uning manbasi xalqning ijodiy dahosidir.

Yurtimiz erishgan buyuk ne’mat mustaqillik tufayli xalq ijodiga bo‘lgan qarash va munosabatlar yangicha sifat kashf etdi. Xalq ijodi san’atini rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga olib chiqildi. O‘zbekiston hududida yashovchi boshqa millatlar ham bugungi kunda o‘zbek xalq udum va marosimlariga alohida ahamiyat bermoqdalar. Ayniqsa, oilaviy marosimlar, “Navro‘z” va Hayit bayramlarida ularning qiziqish bilan ishtirok etishilari ham e’tiborga loyiqidir.

O‘zbekistonda yashovchi har bir xalq millati, irqi, nasl-nasabining, yoshi darajasi bo‘lishidan qat’iy nazar marosim va an’analarga hurmat bilan qarashi, o‘z urf-odatlarining mushtarakligini e’tirof etishi mustaqillik ne’matidir. Shunday ekan an’ana va marosimlarni barhayotligini ta’minlash ularni yoshlar qalb shuuriga singdirish har birimizning sharaflı burchimizdir.

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalar uchun oliv ma'lumotga ega bo'lgan malakali rahbar – tashkilotchilarni tayyorlashda "Folklor asarlarini sahnalashtirish" fani muhim ahamiyatga egadir. Talabalar amaliy mashg'ulot darslarini o'zlashtirish orqali o'z xalqining boy milliy madaniyati, tarixiy qadriyatlari, rasm-rusm, marosim, udum hamda an'analarini chuqur o'rganadilar. Ushbu fanni o'qitishda texnik vositalar, audio va video kassetalar, musiqa cholg'ulari va ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanish mashg'ulot sifati va salohiyatini oshirish hamda talabalarni fanni puxta egallashlari uchun imkoniyat yaratadi.

"Folklor asarlarini sahnalashtirish" fani 5151600 – Xalq ijodiyoti (folklor va etnografiya) ta'lim yo'nali shining asosiy o'zak fani hisoblanib, ushbu fan folklorshunoslik tarixi va nazariyasi, O'zbekiston nomoddiy madaniy merosi, o'zbek xalq etnologiyasi, o'zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari, folklor-etnografik jamoalari bilan ishslash uslubiyoti, folklor jamoa ijrochiligi, yakkaxon qo'shiqchilik, cholg'u ijrochiligi, setsenariynavislik mahorati, raqs kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Mazkur fanni o'zlashtirgan talabalar folklor janrlari nazariyasini bilishi, ijrochilik mahoratiga ega bo'lish va folklor-etnografik jamoalari ishini tashkil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

O'quv fanining maqsad va vazifalari

"Folklor asarlarini sahnalashtirish" fanining *maqsadi* milliy merosimizning durdonasi bo'lgan urf-odat, marosim va an'analarning hududlarga xos bo'lgan ijrolarini o'rgatish hamda xalqimiz orasida yo'qolish arafasida turgan udumlarni xalqqa qaytarishdan iboratdir.

"Folklor asarlarini sahnalashtirish" fanining asosiy *vazifasi* folklor asarlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish, Respublikamizda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalarning sahnaviy salohiyati, ijro mahoratini tahlil etish orqali ularning uslublarini o'rgatish hamda xalq marosim va

udumlari bilan bog‘liq kichik-kichik sahna asarlarini ijro etish malkasini hosil qilishdan iborat.

Folklor asarlarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari

Ajdodlar tomonidan yaratilib, xalqimiz turmush tarziga singib ketgan an’ana, urf-odat va marosimlar bevosita folklor san’atida o‘z ifodasini topgan. Folklor asarlarini sahnalashtirish bugungi kunda folklor san’atining serjilo janrlarini rivojlanishiga, talabalar qalbiga milliy ong, milliy g‘urur, milliy iftihor kabi tuyg‘ularni singdirishga zamin bo‘ladi.

“**An’ana**” – tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida vujudga keladigan, ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib o‘tadigan, kishilar madaniy hayotiga ta’sir o‘tkazadigan madaniy hodisadir. An’ana o‘ziga xos ijtimoiy qoida tarzida kishilar ongiga singgan (umum yoki ma’lum guruh tomonidan), qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi¹.

“**Marosim**” – bu tushuncha nisbatan tor tushuncha bo‘lib, u shu xalq hayotining ma’lum sohalarida omma tomonidan qabul qilingan, ko‘pincha ramziy xarakterga ega bo‘lgan va ma’lum kishilar majmui tomonidan maxsus uyushtiriladigan namoyishlardan iborat². Shuningdek **marosim** – inson hayotining moddiy va ma’naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan hodisadir. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma’lum bir tarixiy taraqqiyoti bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko‘rsatuvchi asosiy belgilarni o‘zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi.³ Boshqacha qilib aytganda, marosim jamoa tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo‘lgan hayotiy tadbirdir.

Xalqimizning ko‘p asrlik ma’naviy merosi sifatida vujudga kelgan marosimlar uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tib, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Marosimlar o‘zida xalqning asriy an’analari, turmush tarzi, mentaliteti, qolaversa, g‘oya va qarashlarini bevosita aks ettiruvchi voqeilik

¹ Корабоев У. Ўзбек халқи байрамлари.– Т.,Шарқ, – 2002. – Б.8.

² Саримсоқов Б. Маросим фольклори. - Т.,Фан, 1986. – Б.12.

³ Саримсоқов Б. Маросим фольклори // Ўзбек фольклори, очерклар Т.,1988.– 152.

sifatida gavdalanan ekan unda xalq turmushining etnik va estetik jihatlari o‘z ifodasini topadi. Insonning tug‘ulishi, hayotining ma’lum bosqichi, shu jumladan, vafotini oilada maxsus marosimlar orqali qayd etish o‘ziga xos an’anaga aylangan. Bunday an’analar barcha xalqlar madaniyatida mavjud ekanligini e’tirof etish zarur.

“*Urf-odat*” deyilganda kishilarning turmushiga singgib ketgan, ma’lum muddat takrorlanib turuvchi hatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari ko‘nikmasidir. Urf-odat tushunchasi esa o‘ta keng bo‘lib, u o‘z ichiga xalq hayotining barcha tomonini – oddiy kundalik udum, rasm-rusm, irim-sirimlar, o‘zaro-muomala tarzi hamda barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi. Demak ushbu marosim va urf-odatga berilgan qisqacha qaydlardan ham ko‘rinib turibdiki, urf-odat tushunchasi xalq hayotining barcha sohasini o‘z ichiga qamrab olsa, marosim tushunchasi hayotning muayyan sohalarigagina aloqadordir. Urf-odat bir vaqtning o‘zida bir shaxs yoki bo‘lmasa ko‘pchilik tomonidan bajarilishi shart bo‘lgan qoida bo‘lsa, marosim belgilangan shaxslar tomonidan bajarilishi lozim bo‘lgan hatti-harakatdir⁴. Jumladan, kichikning kattaga birinchi salom berishi yoki ko‘pchilikka kamchilikni salom berishi, yoinki mehmonlarga alohida hurmat ko‘rsatish, bayram arafasida yaqinlari, keksa qariyalar, qo‘ni-qo‘shnilar holidan xabar olish kabi ko‘rinishlar o‘zbeklarga xos milliy urf-odatlardir.

Urf-odatlar bilan marosim orasidagi o‘zaro farqni ular ichidagi ramziy harakatlarni qo‘llanilishi darajasi orqali ham anglab olish mumkin. Jumladan, urf-odat o‘z ichiga ramziy va ramziy bo‘lmagan harakatlarni to‘la qamrab olsa, marosim faqat ramziy xarakterdagi xatti-harakatlarnigina qamrab oladi. Qolaversa urf-odat muayyan xalq uchun asosan bir xil – o‘zgarmas qoida, norma bo‘lsa, marosim bir xil xalq doirasida keskin lokal farqlanishlarga ham ega bo‘ladi. Shuningdek har qanday marosim o‘zi mansub bo‘lgan xalq urf-odatlarining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shu bois marosimdan urf-odat elementlarini qidirib topish mumkin, lekin urf-odatdan marosimni qidirib

⁴ Саримсоқов Б. Маросим фольклори.. – 13.

bo‘lmaydi. Bu o‘rinda biroz boshqacharoq tarzda folklorshunos B.Sarimsoqov ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, har qanday marosim urf-odat hisoblanadi, ammo har qanday urf-odat marosim bo‘la **olmaydi**⁵.

Insonning hayot yo‘li bilan bog‘liq holda bajariladigan marosimlarning aksariyatini oilaviy urf-odat va marosimlar tashkil qiladi. Oilaviy-maishiy marosimlarni esa oilaning u yoki bu a’zosi hayotidagi muhim voqealarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, quyidagilarga ajratib ko‘rsatish mumkin:

- oilada farzand tug‘ilishi va uning tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan urf-odat va marosimlar;
- nikoh-to‘y marosimlari;
- oila a’zosini so‘nggi yo‘lga kuzatish, ya’ni dafn etish va ta’ziya bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar.

Marosimlar tarkibidagi ikkinchi katta turkum marosimlarga yilning turli fasllari bilan bog‘liq mavsumiy marosimlar, ya’ni - qishki, bahorgi, yozgi va kuzgi marosimlar kiradi. O‘z navbatida mazkur turkum marosimlarni quyidagicha ichki turkumlarga bo‘lib tasnif etish mumkin:

1. Qishgi marosimlar. Bu turkum marosimlarga yas-yasun, gap-gashtak, birinchi qor yoqqanda o‘tkazildagan «qor yog‘di» kabi marosimlar kiradi.
2. Bahorgi marosimlar. Bunga dastlabki «shox moylar»- dalaga qo‘sish chiqarish marosimi, dastlabki urug‘ni yerga tikish marosimi, Navro‘z, sumalak sayli, «sust xotin», loy tutish, hasharlar kabi marosimlar kiradi.
3. Yozgi marosimlarga «Choy momo», qovun sayli, uzum sayli kabi marosimlar kiradi.
4. Kuzgi marosimlar. Bu turkum marosimlarga «Oblo baraka», shamol chaqirish va xosil bayrami marosimlari kiradi.
 - Diniy marosimlarga hayitlar, mavlud, bibimushkulkushot, bibiseshanba, bibichorshanba, zikr kabi marosimlar kiradi.

Ziyoratgohlarda o‘tkaziladigan marosimlar⁶.

⁵ Сайфуллаев Б. ва бошқа. Номоддий маданий мерос ва фолклор ижро санъати анъаналари. Ўқув кўлланма -Т.: 2017. Б.143

Urf-odat va marosimlar maishiy turmush va oila hayoti bilan bog‘langan ijtimoiy hodisadir. Urf-odat va marosimlar jamiyat taraqqiyotining ilk davrlaridanoq shakllanib, rivojlanib kelgan. Kishilar o‘z hayotlari davomida ko‘plab urf-odat va marosimlarda ishtirok etishga tortiladilar, bevosita uning qatnashchisiga aylanadilar.

Hozirgi kunda Respublikamizda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik jamoalarining foliyatlari tufayli unutilish arafasiga kelib qolgan milliy qadriyatlarimiz, urf-odat, marosimlarimiz tiklanmoqda.

Masalan, «Boysun» folklor-etnografik jamoasi «Oblo baraka» (ya’ni oxirgi tutam bug‘doyni o‘rib olish va xirmon ko‘tarish marosimi), «Don sepdi», «Navro‘zi olam», «Lola sayli», «Shox moylar» (dalaga birinchi qush chiqarish marosimi), «Xo‘p mayda» (g‘allani yanchish bilan bog‘liq udum), «Turna keldi», «Hosil bayrami», «Boysuncha yor-yor», «O‘tin yorish», «Ota sinov» (nikoh to‘yi bilan bog‘liq udum), Navoiy viloyatidagi «Yor-yor» folklor-etnografik jamoasi «Kokil to‘yi» (bolani birinchi sochini olish bilan bog‘liq marosim) dasturi, Andijon viloyatidan «Bedana» folklor-etnografik jamoasi, Samarqanddag‘i «Beshqarsak» folklor-etnografik jamoasi tomonidan tayyorlangan «Sunnat to‘yi», O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Folklor va etnografiya” kafedrasi qoshidagi «E’zoz» folklor-etnografik talabalar jamoasi tomonidan tayyorlangan chaqalojni poklik suviga olish, qulog‘iga azon aytish, avlodlar shajaras, guldur-gup, sanamalar, barhayot an’analar, baxt sinovi kabi dasturlari, Jizzax viloyatidagi «Gashtak» folklor-etnografik jamoasi tayyorlagan nikoh to‘yi bilan bog‘liq «To‘qqiz toboq» an’anaviy udumi, Toshkent viloyatidagi «To‘rg‘ay» folklor-etnografik jamoasi tayyorlagan nikoh to‘yi bilan bog‘liq «To‘sh qaytarar», «Xorazm» folklor-etnografik jamoasining nikoh to‘yi bilan bog‘liq «Non yopdi», «Lachak to‘yi» kabi dasturlar ana shunday qadimiy ma’naviy qadriyatlar silsilasi bo‘lmish milliy an’analarimizni tarannum etuvchi qadriyatlardir.

⁶ Сайфуллаев Б. ва бошқа. Номоддий маданий мерос ва фолклор ижро санъати анъаналари. Ўкув кўлланма -Т.: 2017. Б.144.

Mustaqillik tufayli yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish folklor asarlarini hayotga keng targ‘ib qilish jarayonini boshladi. Unutilgan qadriyatlarga e’tibor berilmoqda. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go‘zal namunalarini o‘zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi “Navro‘z” sayli bilan bog‘liq qo‘shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. “Navro‘z” bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarini badiiy xususiyatlari, bayramni o‘tkazilishi bilan bog‘liq lokal belgilar yuzaga chiqdi. Har bir hududda o‘tkaziladigan “Navro‘z” sayli bilan bog‘liq yil boshi tantanalarini ifodalanishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu jihatdan olib qaralsa, folklorshunos olimlarimiz tomonidan o‘rganilgan ilmiy tadqiqotlar asosida Navro‘z bayramida qadimdan mavjud bo‘lgan ko‘pgina asriy udumlar, xususan, «Yil boshi», «Qozon to‘ldi», «Sumalak pishirish», «Hashar uyushtirish», «Arg‘imchoq uchish», “Boychechak sayli” «Lola sayli» kabi qadimiy marosimlarimiz yana hayotga qaytdi. Zero, Navro‘z marosimlari, udumlari va qo‘shiqlarida mehr va muruvvat, oqibat va insoniylik, qut-barakaga bo‘lgan buyuk ishonch, mo‘l xosil olish g‘oyasi, el-yurt xotirjamligi kabi qadriyatlarimiz mujassamlashgandir.

Folklor asarlarini sahnalashtirish usullari

Folklor asarlarini sahnalahtirishda avvalo mavzu tanlash muhim ahamiyatga egadir. Tanlangan mavzuni chuqur o‘rganish, uning boshqa hududlardan farqli va o‘xhash jihatlarni tahlil etish, ilmiy-nazariy jihatini to‘liq o‘rganish lozim bo‘ladi. Tanlangan mavzu qaysi hududga xos bo‘lsa, aynan shu hududning dunyoqarshi, qo‘shiqlari, odatlarni sinchiklab o‘rganish sahnalahtirilayotgan dasturni mukammal chiqishiga zamin yaratadi. Nazariy jihatlari to‘liq o‘rganilgandan so‘ng asar ssenariysi ustida ishslash, marosimda ijro etilayotgan qo‘shiqlarni to‘g‘ri tanlash, jamoa bilan hamkorlikda ijro etish mahoratini ko‘rsatish lozim bo‘ladi. Hududning o‘ziga xos ijro usullari, marosim qo‘shiqlarining ijrochilik yo‘llari hamda u bilan bog‘liq musiqiy mahorat sirlarini tahlil etish, shuningdek, ularning sinxronik tomonlariga e’tibor qaratish ham muhim ahamiyatga egadir.

Folklor-etnografik jamoalar reperturidagi asarlar folklor va etnografiyaga doir namunalardan iboratdir. Folklor-etnografik jamoalarining faoliyati hozirgacha nazariy va amaliy jihatdan maxsus o'rganilgan emas.

Folklor-etnografik jamoalar faoliyatida qo'shiq ham, kuy ham, raqs ham, dramatik asarlar ham bor. Shu sababli folklorni sinkretik san'at deb atalishi ham beziz emas. Hozirgi kunda folklor jamoalarida ijro etilayotgan ko'pgina qo'shiqlar xalq yo'lida emas, bastakorlik qayta ishlovi yo'lida ijro etilishi achinarli holatdir. Qo'shiq so'zlarini buzish, folklor materiallarini qayta ishlash, variantlilik masalalariga ko'pincha e'tibor berilmayapti.

Jamoalar repertuarini boyitib, yangilab turmasa bo'lmaydi. O'zbek folklorining g'oyat boyligini nazarda tutsak, buning uchun doimo material bor. Har bir jamoa o'z repertuari uchun material tanlaydi. Material tanlash, uni ijodiy qayta ishlashda folkoring nazariy va amaliy poetikasini bilish muhim. Folklorshunoslik amaliyotidan ma'lumki, ko'pgina kishilar bilsalar ham turli sabablarga ko'ra, folklor materiallarini folklorshunoslarga aytishmaydi, aytishsa ham tabiiy ijro etishmaydi. Jamoalar vakillari esa o'z muhitlari, o'zlarini yaxshi bilgan kishilar bo'lgani uchun aytuvchilar ulardan tortinmaydilar va asarni butun nafosati, tabiyligi bilan ijro etadilar.

Folklor-etnografik jamoalarining turli ommaviy sayillar, bayramlar, ko'rik-tanlovlardagi ishtiroklari ular imkoniyatining naqadar kengligi va repertuarining boyligini ko'rsatmoqda. Masalan, Navro'z bayramlariga bag'ishlab o'tkazilayotgan tantanalarda folklor - etnografik jamoalari jahonning ko'pgina mamalkatlaridan kelgan mehmonlar, teleko'rsatuvalar orqali olamga o'zbek xalqining o'ziga xos madaniyati, bu madaniyatning regional o'ziga xosliklarini yorqin namoyish qilmoqda. Mustaqillik davri tajribasi shuni ko'rsatdiki, jamoalar repertuarida marosim bilan bog'liq xalq qo'shiqlari birinchi o'rinda turadi. Bu tabiiy holdir. Chunki xalq qo'shig'i eng ommaviy, eng xalqchil janr bo'lsa, marosimlar xalq ijodi, maishiy turmushining o'zidir.

Folklor-etnografik jamoalarining vakillari jamoaning oddiy a'zosigina emas, balki ayniqsa, keksa va o'rta yoshdagи a'zolari xalq ijodining katta

bilimdonlari hamdir. Jamoalar faoliyati shuni ko'rsatadiki, ular repertuarining bir qismi nashr etilgan xalq og'zaki ijodiga oid kitoblardan o'zlashtirilgan bo'lsa, katta qismi shu jamoa a'zolari tomonidan to'plangan. Folklor-etnografik jamoalari a'zolari ijrochigina emas, ayni paytda ijodkorlar hamdir. Xalq qo'shig'ining ijodkori ham, ijrochisi ham, tinglovchisi ham xalqning o'zidir. Shu bois ma'lum bir paytda tinglovchi bo'lgan xalq vakili, boshqa bir paytda faol ijrochi va ijodkor bo'lishi juda oson.

Folklor-etnografik jamoalar faoliyatini yuksaltirishda madaniyat va aholi dam olish markazlarining, madaniyat bo'yicha mutasadi tashkilotlarning roli katta. Folklor-etnografik jamoalari o'z repertuarlarini folkloarning dramatik turi namunalari bilan boyitib borsalar, bundan faqat yutadilar. Masalan, sahnadagi to'y o'z xususiyatlariga ega bo'lgan etnografik spektakldir. Bunda to'yning hayotdagi izchilligi, irimlar aniqligi, hatto har bir detalga alohida e'tibor berish lozim. Hayotda kelinchak chimildig'i bog'iga kelin-kuyov rizqli bo'lsin deb, bir juft yog'och qoshiq ilib qo'yadilar:

Chimildiqning bog'ida,

Dasta qoshiq, yor-yor.

Kelin-kuyov so'rasang,

Oltin oshiq yor-yor⁷.

Hozirgi paytda yog'och qoshiq ishlatish rusum bo'lmay qoldi. Yog'och qoshiqni umuman ko'rmagan yoshlar ham ko'p. Biroq sahnada chimildiq epizodi o'ynalar ekan, topilmadi deb, yog'och qoshiq o'rniga temir qoshiq ilish folkloarning amaliy an'anasiga butunlay ziddir.

Folklor uchun variantlilik xos. Biroq, folklor-etnografik jamoalari o'z repertuariga asar tanlab olar ekan, har bir so'z, har bir detal, har bir harakatga alohida e'tibor berish kerak. Chunki bunday jamoalar folklor asarlarini buzish yoki zamonaviylashtirish uchun emas, balki an'anaviy nafosatini to'liq avlodlardan-avlodlarga, tomoshabinga yetkazish uchun tuziladi. Ana shuning

⁷Икки кўнгил бир бўлсин (Ёр-ёрлар) / Тузувчилар: М.Жўраев, Л.Худойкулова. – Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. Б. 157

uchun ham respublikamiz rahbari va hukumati umumfolklorga bo‘lgani kabi folklor-etnografik jamoalar faoliyatiga ham katta e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelmoqda.

Folklor-etnografik jamoalari birinchidan, ma’lum bir tashkiliylik, ikkinchidan, tinglovchilar va tomoshobinlar auditoriyasini talab qiladi. Jamoa ishtirokchilari professional san’at vakillari darajasida bo‘lmasa ham, avvalo folklor asarlarini, qolaversa, folklor nazariyasini ma’lum darajada bilishlari va uni tomoshabinga manzur qilib yetkaza olishlari zarur. Xalq orasida folkloarning har bir janri qo‘shiq, latifa, ertak, marosim janrlari namunalarini juda yaxshi biladigan kishilar, ya’ni o‘ziga xos professionallar borki, bizningcha jamoalar ana shunday kishilardan tarkib topishi shart. Ular tufayli jamoa faoliyati professionallashib boradi. Natijada ayrim jamoalar mahoratda professional sa’nat jamoalariga tenglashuvi mumkin. Shuning uchun ham biz jamoalarning xalq ijodining haqiqiy an’analariga doimo e’tibor berishini, repertuar tanlashda mutaxassis yoki xalq ijodining bilimdoni bo‘lgan kishilardan maslahat olishsa maqsadga muvofiq bo‘lardi. Hozirgi paytda xalq qo‘shiqlarini buzib kuylash shu darajada ommaviylishib ketdiki, ularda na zamonaviy, na an’anaviy mazmun bor. Kim o‘zicha qanday kuylasa, o‘zining ixtiyori. Ammo o‘zicha kuylash boshqa, odamlar uchun kuylash boshqa. Eng yomoni omma oldida kuylangan bunday qo‘shiqlar xalqning badiiy didini buzadi. Shu sababli “Folklor va etnografiya” kafedrasida faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchilar talabalarga folkloarning har bir hududiga xos bo‘lgan xalq qo‘shiqlarini aynan o‘z yo‘nalishida, usul va uslubida o‘rgatishlari kelajakda bo‘lajak mutaxassilarni to‘g‘ri tarbiyalashga ko‘mak beradi.

Folklor-etnografik jamoalarining asosiy vazifalaridan biri haqiqiy an’anaviy folklor asarlarini topish va sahnaga olib chiqishdir. Garchi hozir epik, umuman, folkloriy jarayonda juda ko‘p janrlar so‘nayotgan bo‘lsa-da, xalq orasida xalq qo‘shiqlarining eng yuksak namunalarini biluvchilar bugungi kunda ham yuzlab topiladi. Ularni topish va folklor asarlarini yozib olishda talabalarning amaliyot davridan unumli foydalangan holda folklor nazariyasi va

amaliyotini to‘liq o‘zlashtirgan holda ekspeditsiyalar o‘tkazish hamda yozib olingan folklor namunalari, urf-odat, marosimlardan dars jarayonlarida foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Yangi folklor asarlari orqali talabalar kelgusida jamoalarning repertuarini to‘ldirishi, to‘g‘ri talqin etishiga imkoniyat yaratar edilar. Bundan tashqari folklor-etnografik jamoalari biror tadbir uchun liboslar tanlashar ekan, doim ham milliy belgilarga e’tibor berishmaydi. Shu sababli etnogrflarimiz tomonidan talabalarga folklor kiyim va bezaklarini to‘liq o‘rgatilishi ham folklor asarlarini to‘g‘ri sahnalashtirishlarida qo‘l keladi. Liboslardan noto‘g‘ri foydalanish xalqni chalg‘itishga olib keladi. Bunda hududga xos bo‘lgan belgilarni ochib berilishida chalkashliklarni ham keltirib chiqarishi mumkinligini unutmaslik lozim.

Folklor-etnografik jamoalari va folklor munosabati bizning kunlarimizda malakaviy ommalashtirishga muhtojdir. Folklorshunoslik xalq ijodining barcha sohalari bilan shug‘ullana olmaydi. Bu uning vazifasiga kirmaydi ham. Muhimi shundaki, u zamonaviy folklor ijro-ijodchiligi, folklor-etnografik jamoalari faoliyatiga ilmiy mezonlardan turib baho, tavsiyalar berishi, shu yo‘l bilan amaliy yordam ko‘rsatishi mumkin.

O‘QUV MATERIALLARI

BESHIK TO‘YI

O‘zbek xalqi odatlari orasida chaqaloq dunyoga kelishi bilan bog‘liq an’analari tizimi alohida o‘rin tutadi. Bu tizim chaqaloq tug‘ilganida qarindoshurug‘, yor-birodarlardan suyunchi olish, bolani cho‘miltirish, ilk bor ko‘ylak kiydirish, chaqaloqqa ism qo‘yish, kichik va katta chillani o‘tkazish, bolani beshikka solish kabi maxsus tadbirlardan tarkib topgan.

O‘zbeklarda “Beshik to‘yi” marosimi azal – azaldan o‘tkazib kelingan. Mazkur marosim bolani beshikka solish odati bilan bog‘liq bo‘lgani bois “Beshik to‘yi” deb atalgan. Ayrim joylarda bu to‘y kichik bir oilaviy marosim

shaklida o‘tkazilsa, boshqa joylarda esa ko‘pchilik ishtirokida o‘tkaziladigan kichik bayramga aylanib ketadi.

“Beshik to‘yi” marosimi chaqalojni beshikka belash marosimi sifatida O‘zbekistonning barcha hududlarida keng nishonlanadi. Xalqimiz orasida shakllangan qadimiy an‘anaga ko‘ra, beshik asosan tut, jiyda, o‘rik kabi mevali daraxtlarning yog‘ochidan tayyorlanadi. Mevali daraxtlar qadimgi ajdodlarimiz tasavvurida ham hosildorlik, qut-baraka timsoli sifatida qaralganligi uchun ham yaxshi niyat bilan ularning yog‘ochidan beshik tayyorlangan. Ajdodlarimiz mevali daraxtlarga xos sermevalilik, ya’ni hosildorlik xususiyati beshik orqali bolaga ham o‘tadi, deb ishonganlar.

Chaqaloq tug‘ilgan xonadonga olib kelinadigan beshik anjomlarning tarkibi beshik, sumak, sopoldan yasalgan tuvak, gavarapo‘sh, arzondona, ya’ni bola rizq-ro‘zli, uvali-juvali bo‘lsin, degan umidda ichiga tariq solib tikilgan maxsus uzun ko‘rpacha, qo‘lbog‘, oyoqbog‘, pichoq, kichkina kulcha nondan iborat bo‘lgan.

An‘anaga ko‘ra, chaqaloqning “kindigi tushgandan” keyin, ya’ni bola 3,5,7,9 kunlik bo‘lganda beshikka belash marosimi o‘tkazilgan. Surxon vohasida bolani beshikki belash marosimida hovlida o‘t yoqilgan va kuyovning yoki qo‘shnoch momo beshikni ko‘tarib olov ustidan uch marta o‘tkazib olgan. Bu udum “beshikni tozalash” yoki, “beshikni xoloslash” deb atalgan. Beshikni uyga olib kirayotganda esa, “bolaga hamda beshikka ziyon-zahmat yetmasin”, degan maqsadda isiriq tutatilgan. Momolardan biri: “Xesh, darvesh, so‘zanda tesh, isriq, chilband, bo‘zband tumor bo‘lsin!”⁸ – deb, ko‘z suqlardan saqlash maqsadida chaqaloq xonasiga bir tutam isiriqni osib qo‘ygan.

Denov tumanidagi Xayrabot qishlog‘ida esa, beshikni tozalash uchun uning yetti joyiga paxta-pilik yoqib, qo‘lini tuvagiga solgan. Qumqo‘rg‘on tumanidagi azlarsoy qishlog‘ida yashovchi Xolsoat Mamatqulovaning aytishicha, beshikni xaloslayotganda uning joyiga kichkina paxta bo‘laklarini

⁸М.Жўраев., Л.Худойкулова. Маросимнома. – Тошкент. 2008. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти Б. 22

qo‘yib chiqib, yoki o‘chirilgan va “alas-alas” deb yoqilgan paxta bo‘lakchalari suvgaga tashlangan.

Toshkent viloyatining Piskent tumanida chaqaloqni beshikka solish tantanalarida avval beshikni ho‘l navda bilan qoqib, “alas-alas” qilib, chaqaloqni belayotganda “egalari keldi, kuchuklari qoch!⁹” deb belaydilar. Bolalarning boshiga esa, kulcha qo‘yadilar.

An’anaga ko‘ra chaqaloq ikki bor beshikka yotqizilayotganida bu amalda o‘zidan tinib-tinchigan, serfarzand momo bajargan. U “Bismillohir rahmonir rahim!” – deb bolani ikki qo‘li bilan ko‘tarib, birinchi marta bolaning boshini o‘ng emas, balki beshikning oyoq tomoniga qaratib yotqizadi va “Bu yerga yotqizaymi, o‘ngmi, chapmi?” – deb so‘raydi. Marosim ishtirokchilari esa baravariga “yo‘q-yo‘q” – deb javob beradilar. Shunda momo chaqaloqni beshikning eniga qaratib yotqizadi va marosim qatnashchilaridan yana rad javobini oladi. Uchunchi marta esa bolani to‘g‘ri, ya’ni o‘ng qilib yotqizadi va marosim qatnashchilari ham “o‘ng-o‘ng”, – deb buni tasdiqlaydilar. Momo bolani birinchi marta yotqizayotgan paytda:

Beshik bolasi bek bolasi,

Beklar beshigini keltiring-a,

Beshik bolasi bek bolasi,

Beklar jotgan beshigida jotsin-a,

Egajoni keldi-ya,

Kuchuklari qochsina,

O‘toviga egajoni keldi-ya,

O‘ngmi, chapmi¹⁰? – deb chaqaloqni beshikka belaydi.

Shundan so‘ng “uyquchi”, “qo‘rquiv-qo‘rquiv”, “sog‘ bo‘lsin” kabi udumlar bajarilgan. Chaqaloqni belagan momo oq-qora ipni eshib turib, marosimda ishtirok etayotgan har bir kishining yoniga borib “uyqingizni

⁹М.Жўраев., Л.Худойқулова. Маросимнома. – Тошкент. 2008. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. Б. 23

¹⁰М.Жўраев., Л.Худойқулова. Маросимнома. – Тошкент. 2008. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. Б. 23

bering”, “uyqingizni bolaga berdingizmi” – deydi. Ular “uyquni berdim” degach, go‘yoki uyquni olganday bo‘lib, qo‘lidagi ipga bitta tugun tugadi. Shu tariqa hammaning uyqusini “yig‘ib olib”, tuginni beshikning boshiga bog‘lab qo‘yadi. Devon tumanida esa kuyovni momo tug‘ilgan ipni chaqaloqning tushgan kindigi bilan matoga o‘ralgan tumor qilib beshikka osib qo‘yilgan. Bunday o‘xshashlikni turkman urf-odatlarida ham uchratasimiz. Bolani uxlatish uchun foydalilaniladigan belanchakya’ni beshik tog‘da osadigan kamyob, xosiyatli hisoblangan dog‘dan daraxtning cho‘plaridan tayyorlangan hamda o‘sha daraxtlardan tayyorlangan tumorlarni qo‘yishgan¹¹.

Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida “Beshik to‘yi” marosimida uzun qilib kesilgan ugra oshi pishirilgan. Ugraning uzun qilib kesilishi orqali chaqaloqning umri uzun bo‘lsin degan niyat bildirildi. Shuningdek beshik to‘yda jo‘xoridan taom tayyorlash odati ham mavjud bo‘lib, uning mohiyati bu o‘simlikka xos bo‘lgan serhosillik xususiyati bo‘lagi ham o‘tib, u kelgusida serfarzand bo‘lsin degan ma’noni anglatadi. Respublikamizning ko‘pgina hudularida chaqaloq beshikka belangach, kayvoni momo ikkita nonni olib chetidan tishlaydi va onaga beradi. Ona bu nonlarni tishlab turganida marosimda qatnashayotgan yosh bolalar bu nonni onaning og‘zidan yulib olib ketishadi va bo‘lib yeydilar. Bu udum zamirida beshikdagi chaqaloq ham xuddi shu bolalar kabi rizq nasibali bo‘lib ulg‘ayib, chopqillab yursin degan tilak mujassamlashgan.

Surxandaryo viloyatida bolani beshikka belagach kurmach-bug‘doy sepish udumi ham mavjud. Buning zamirida farzandning rizqi butun bo‘lishiga ishoradir. Bundan tashqari, beshik ustiga ota-bobolariga o‘xshab yursin, degan niyatda o‘zidan tinib tinchigan bobosi, momosi, tog‘alari va h.z.ning kiyimlarni yopish odatlari ham mavjud.

¹¹М.Жўраев., Л.Худойқулова. Маросимнома. – Тошкент. 2008. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. Б. 24

“Beshik to‘yi” marosimida chaqaloqni beshikka belash amali bajarilayotganda alla aytish mazkur marosimning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

“BESHIK TO‘YI” SSENARIYSI

(Samarqand viloyati misolida)

<p><i>Sahna milliy kashtalar, ko ‘zalar, savatlar, tumorlar, ko ‘zmunchoqlar, ko ‘ztumorlar, turli quroqlar, har xil atlas mato va rang-barang gullar bilan bezatilgan.</i></p> <p><i>Ishtirokchilar tomonidan qo ‘shiq ijro etilib, kayvoni momo kelinning qarindosh-urug ‘lari sovg ‘a-salom, kayvoniy momoga beshikni boshi ustiga ko ‘tarib sahnaga kirishadi. Beshik ustidan, ularni bolalar terib olishadi. Kelin tomonidan kelayotgan mehmonlarni yuzlariga uy egalari un surtib kutib olishadi.</i></p>	
<p>Ishtirokchilar:</p>	<p>Tom-tom bo‘lsin,</p> <p>Tom bo‘lsin-yey,</p> <p>Alla bolam.</p> <p>O‘tovi osmon bo‘lsin-yey,</p>

	<p>Alla bolam</p> <p>Boshida turgan otasi,</p> <p>Alla bolam.</p> <p>Yonida onasi bo‘lsin,</p> <p>Alla bolam.</p> <p>Bek bo‘lsin, sulton bo‘lsin,</p> <p>Alla bolam.</p> <p>Yostig‘ida non bo‘lsin-yeys,</p> <p>Alla bolam.</p> <p>O‘g‘il berdi, polvon bo‘lsin,</p> <p>Alla bolam.</p> <p>Qiz bo‘lsa janon bo‘lsin,</p> <p>Alla bolam.</p>
<p>Ayollar beshikni uygaga olib kirishadi. Kayvoni momo uy chetiga isiriq bog‘laydi.</p>	
<p>Kayvoni momo:</p>	<p>Bismillohir raxmonir rahim, bu issiriq bola yotgan xonani turli ziyonlardan asraydi bolalarim. Qani, beshigimizni xaloslab olaylik. Beshikning hamma anjomlari taxtmi? Ammajonisi, qani olib keling. Biz ungacha mana bu yettita paxta-pilik bilan “beshik xaloslash” udumini o‘tkazib olamiz.</p> <p>Xalos, xalos, xalos</p> <p>Barcha balolardan xalos.</p> <p>Abrasmon dori-dori.</p> <p>Har bir dardga siz dori</p>

	Abrasmoni har davo Har bir dardga siz davo.
<i>Kayvoni momo alas-alas qilib piliklarni yoqib beshikni ustidan aylantirib oladi. Uning qo‘lini tuvak ichiga tashlaydi.</i>	
Amma:	Buvijon mana beshik anjomlarini olib keldik.
<i>Chaqaloqning ammasi qo‘lida non, oyna, taroq, pichoq qo‘yilgan patnisni kayvoni momoga uzatadi.</i>	
Kayvoni momo:	Qani bo‘lmasa beshikni tayyorlab olamiz.
<i>Kayvoni momo beshikning yopqichlarini ochib, ichiga kerakli to‘saklarini soladi. Hamda avvaldan tayyorlangan maxsus narsalarni birma-bir nima uchunligini aytib yostiq tagiga qo‘yib chiqadi.</i>	
Kayvoni momo:	Nonni boshiga qo‘yamiz, rizq-ro‘zli, nondek azizu mukarram bo‘lib yursin. Oyna qo‘yamiz, yo‘li tiniq, farovon, oydin bo‘lsin. Pichoq qo‘yamiz, so‘zi o‘tkir bo‘lsin. Tariq sepamiz, serfarzand, serdavlat bo‘lsin. Taroq qo‘yamiz, hayotdagi chigallarni to‘g‘irlash uchun. Qani xolajonisi isiriqni olib keling. Oldin bolamga, beshikka so‘ngra uylarga isiriq

	tutating uyidagi turli yomon narsalar chiqib ketsin.
<i>Xolasi isiriqni tutatib olib keladi. Beshikdan so‘ng ishtirokchilar boshidan, uyning burchaklarini aylantirib oladi.</i>	
Xolasi:	Isiriq-isiriq, Usmon isiriq. Har balo-yu-qazolarni, Yo‘q qiluvchi isiriq.
Kayvoni momo:	Qani qizim chaqaloqni olib keling.
<i>Ona chaqaloqni olib kelib momoga beradi. Momo chaqaloqni ikki qo‘li bilan olib, birinchi marta bolaning boshini o‘ng emas, balki beshikning oyoq tomoniga qaratib yotqizadi.</i>	
Kayvoni momo:	Bu yerga yotqizaymi, o‘ngmi, chapmi?
Ishtirokchilar:	Yo‘q-yo‘q
Kayvoni momo:	Bunday qo‘ysam bo‘ladimi? Chapdan qo‘yaymi, o‘ngdan qo‘yaymi?
Ishtirokchilar:	Yo‘q-yo‘q, o‘ngdan soling, ishi doimo o‘ngdan kelsin
Kayvoni momo:	Bunday qo‘ysam bo‘ladimi?
Ishtirokchilar:	To‘g‘ri o‘ng-o‘ng
Kayvoni momo:	Nabiraginamni beshikka

	<p>solistidan oldin, aytim bor, sizlar ham o‘rganib olinglar.</p> <p>Beshik egasi keldi Bovlari qochsin, Bolaginam orom olsin Unib o‘sib katta bo‘lsin.</p>
<i>Kayvoni momo bolani alqab beshikka belaydi.</i>	
Kayvoni momo:	<p>Shugina jonim, shu jonim , Boshimdagi gultojim. Shu dunyoni ko‘rsin deb, Shu beshikka kirsin deb. Bo‘ynimdagи marjonim, Xudo berdi sevsin, deb. Oltin beshik ham beradi, Shu beshikka kirsin deb.</p>
<i>Kayvoni momo aytimlarini aytib, bolani beshikka belab oladi. Bolani beshikka belash jarayonida, onasi bu amallarni kuzatib, o‘rganib turadi.</i>	
Kayvoni momo:	<p>Beshik bolasi bek bolasi. Beshikda yotgan bolaning qo‘l-oyog‘i chiroqli, qaddi-qomati kelishgan bo‘ladi. Mana bo‘laginamni ham beshikka oldik. Endi “uyqichi” marosimini o‘tkazib olaylik.</p>

<i>Momo oq qora ipni eshib turib, marosimda ishtirok etayotgan har bir kishining yoniga borib so 'raydi go 'yoki uyquni olganday bo 'lib, qo 'lidagi ipga bitta tugun tugadi.</i>	
Kayvoni momo:	Uyqungizni bering.
Ammo:	Uyquni berdim.
Kayvoni momo:	Uyqingizni bolaginamga berdingizmi?
Xola:	Uyqumni berdim.
Kayvoni momo:	Uyqingizni bolaga berdingizmi?
Ona:	Uyqumni berdim.
<i>Shu tariqa hammaning uyqusini "yig 'ib olib", tugunni beshikning boshiga bog 'lab qo 'yadi.</i>	
Kayvoni momo:	Qani xolajonisi nonni bering. Ilohim bolamiz rizqli- nasibali bo 'lsin.
<i>Kayvoni momo ikkita nonni olib chetidan tishlaydi va onasiga beradi.</i>	
Kayvoni momo:	Qani qizim siz ham tishlang, ilohim bolangizni rizqi ulug' bo 'lsin.
<i>Ona nonlarni tishlab turganida marosimda qatnashayotgan yosh bolalar bu nonni onaning og 'zidan olib ketadilar va bo 'lib yeydilar</i>	

Kayvoni momo:	Bolani beshikka belab doim alla ayting ona qizim. Bolani mehri kuchayadi. Avval o‘zim aytib beray. Allam qilsin bolam-o, alla, Uyquda orom olsin-o, alla. Alla, alla, deganda alla, Jimgina uxlab qolsin-o, alla. Alla bolam, alla, Jonim bolam, alla. Iikki ko‘zim, alla, Shirin so‘zim alla... Qani qizim keling, bolangizga alla ayting.
Ona:	Qo‘li arslon bilaklarim, alla, Botir, qoplon yuklim, alla, Yaxshi-yomon kunimda, alla, Menga juda keraklim, alla. Alla, bolam, jonim bolam, Qo‘zichog‘im, ovunchog‘im alla.
Kayvoni momo:	Qizim bolangiz uxlab qoldi. Ichkariga olib kiring.
Xolasi:	Qani biz jiyanimiz sharafiga bir o‘yin kulgu qilaylik.
<i>Ishtirokchilar tomonidan qo‘sishiq ijro etiladi.</i>	
Kayvoni momo:	Qani xolajonisi chaqaloqning umri uzun bo‘lsin, degan niyat bilan pishirilgan ugra oshimiz tayyormi?

Xolasi:	Ha buvijon, suzib tayyorlab qo‘ydik. Ilohim bolajonimizning umri shu ugradek uzun bo‘lsin, deb niyat qilib uzun-uzun kesganman-a. Yuringlar unda ugra osh sovumasdan ichib olaylik.
<i>Barcha ishtirokchilar raqsga tushib sahnadan chiqib ketadilar.</i>	

“SUNNAT TO‘YI” MAROSIMI

(Jizzax viloyati misolida)

«Sunnat to‘yi» — o‘g‘il bolalarning «qo‘lini xalollash» ya’ni sunnat qilish marosimi. «Sunnat» so‘zi aslida arabcha bo‘lib «hamma qabul qilgan qoida, odat» ma’nosini anglatadi. Bu marosim ko‘pgina joylarda «xatna to‘yi» deb ham ataladi. Zero, «xatna» atamasi arab tilidagi «kesmoq», «qisqartirmoq» ma’nolarini anglatuvchi «xatnun» so‘zidan olinganligi uchun o‘g‘il bolalar jinsiy a’zosining uch qismi terisini kesish bilan bog‘liq marosim ham «xatna to‘yi», deb yuritiladi¹².

Bu marosim mamlakatimiz viloyatlarida «xatna to‘yi», «sunnat to‘yi», «ummat qilmoq», «xuydo-xuydo qilmoq», «chuk to‘yi», «to‘yi pisar», «chukbo‘ron», «gula qildirish», «kestirish», “chukron to‘y” “o‘gil to‘yi”, “nevara to‘yi”, “o‘g‘il to‘yi”, «qo‘lni halollash to‘yi» kabi nomlar bilan ataladi¹³.

Vatanimizning turli viloyatlarida o‘tkaziladigan sunnat to‘yi o‘z tarkibiga mansub udumlari bilan bir-biridan farqlanib turadi.

Sunnat qilinayot bola og‘riqni sezmasligi uchun ko‘pgina tumanlarimizda ona derazaning orqasida bir tovoq unga barmog‘ini tiqib turadi. Ba’zi joylarda

¹² M.Jo‘rayev., L.Xudoyqulova. Marosimnomma. – Toshkent. 2008. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. B. 108

¹³ M.Jo‘rayev., L.Xudoyqulova. Marosimnomma. – Toshkent. 2008. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. B. 108

ona tarnovning ostida turib, bir kosa moyga kichkina barmog‘ini solib tursa bola og‘riqni unchalik sezmaydi, deb ishonadilar. Xatna qilingan bola yotgan uyga befarzand, bolasi tug‘maydigan ayollar kiritilmaydi. «Bolaga ko‘z tegmasin» degan maqsadda yostiqning ostiga qalampir, pichoq, isiriq donasi, sarimsoq, piyoz, tuz qo‘yishgan. Jizzax viloyatida sunnat to‘yidan oldin “taxt urar” marosimi o‘tkazilgan. Maxsus tikilgan ko‘rpachalarni yig‘ish, ularning orasiga non, pichoq, yong‘oq kabi buyumlearning qo‘yilishi ham o‘z zamirida ezgu tilaklarni qamragan. Masalan, tog‘asi tomonidan yong‘oq qo‘yilishi, bolaning serfarzand bo‘lishiga ishora bo‘lsa, pichoq yigitning yo‘ldoshi sifatida qaralgan. “Pichog‘i moy ustida bo‘lsin”, - degan qarashlar ham mavjud.

Bola xatna qilinayotgan uyga ziyon-zahmatlar eshik, to‘ynuk, deraza orqali kirishi mumkin deb o‘ylab, uyning tevaragi ip bilan o‘rab chiqilgan. Usta ishlayotgan paytda uyning tomiga hech kimni chiqqani qo‘ymaganlar¹⁴.

Xatna to‘yi marosimida xalqimizning an’anaviy o‘yinlarning o‘ynalishi umum o‘zbek marosim folklorining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Xususan, Xorazm vohasi sunnat to‘yi marosimida «podsho- vazir», «oltin qovoq», «pachiz» kabi xalq o‘yinlari o‘ynalgan.

Surxon vohasi sunnat to‘ylarida esa, «olish» (kurash), «ko‘pkari», «piyoda ko‘pkari», «eshak ko‘pkari», «to‘y bola», «eshak mindi», «quloq cho‘zma», «ot o‘yin» singari o‘yinlar o‘ynalgan.

“SUNNAT TO‘YI” MAROSIMI SSENARIYSI **(Jizzax viloyati misolida)**

<i>Sahnaga jarchi odamlarni to ‘yga aytib kirib keladi.</i>	
---	--

¹⁴ M.Jo‘rayev., L.Xudoyqulova. Marosimnomma. – Toshkent. 2008. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. B. 109

Jarchi:	Ey odamlar yoppasiga Mamatqul tegirmonchinikiga “Sunnat to‘yiga” hamma oshga-aaaaaa!!!!
<i>Sahnaga «Taxt urar» marosimini o‘tkazish uchun to‘y bolaning onasi, mahallaning kayvoniy onaxoni, to‘y bolaning amma-xolalari hamda qarindoshlari qo‘llarida sovg‘a salom bilan qo‘sniq aytib kirib keladilar. Bu tadbirni kayvoniy onaxon olib boradi.</i>	
Kayvoniy ona:	Qani omin, ilohim mana shu to‘y bolamizning umri uzun, rizq-nasibasi ulug‘ bo‘lsin. Ilohim to‘y bolamizning nikoh to‘ylarini ko‘rish ham barchamizga nasib aylasin. Qani omin.
<i>Barcha ishtirokchilar omin qilib duo qiladilar.</i>	
Kayvoniy ona:	Qani bo‘lmasa, an’anamizga ko‘ra to‘y bolamizga yaxshi niyatlar tilab “Taxt urar” marosimini o‘tkazaylik. Qani ammajonisi o‘zingiz endi taxmonga to‘ybolaga atab tikilgan ko‘rpachalarni yig‘ib turasizda.
Amma:	Bo‘lmasachi, buvijon bu jiyanimni to‘yini qancha kutdim-a, men yig‘masam kim yig‘adi.

Kayvoniy ona:	Ammajonisi birinchi ko‘rpani taxmonga niyat qilib bismilloni aytib o‘zingiz yig‘ing. To‘y bolani onajonisi o‘g‘lingizga atab olgan oynani beringchi. Ilohim to‘y bolamizning hayoti mana shu oynadek yorug‘, yuzlari ravshan bo‘lsin.
<i>Amma birinchi ko‘rpachani taxmonga yig‘ida, kayvoniy ko‘rpa orasiga oyna qo‘yadi.</i>	
Hamma:	Omin
Kayvoniy ona:	Xolajonisi endi siz to‘y bolaga atab tikkan ko‘rpangizni niyat qilib taxmonga yig‘ing.
<i>Xola ikkinchi ko‘rpchani taxmonga yig‘adi.</i>	
Kayvoniy ona:	Qani tog‘ajonisi to‘y bolaga atab yasagan pichog‘ingizni ko‘rpa ustiga qo‘ying. Ilohim to‘y bolamiz mana shu pichoqdek o‘tkir bo‘lsin.
<i>Kayvoniy ko‘rpa ustiga pichoq qo‘yadi.</i>	
Hamma:	Omin
Kayvoniy ona:	Ilohim to‘y bolamiz mana shu pichoqdek o‘tkir bo‘lsin.
Hamma:	Omin

Kayvoniy ona:	To‘y bolaning onasi siz ham farzandingizga atab tikkan ko‘rpangizni niyat qilib taxmonga yig‘ing.
<i>Ona uchinchi ko‘rpachani yig‘adi.</i>	
Kayvoniy ona:	Qani qizposhshalar ukangizga atab yopgan nonlaringizni olib keling. Ilohim to‘y bolamiz mana shu nondek aziz inson bo‘lsin.
<i>Qizlar patnisda non olib keladi.</i> <i>Kayvoniy ko‘rpa ustiga non qo‘yadi.</i>	
Hamma:	Omin
Kayvoniy ona:	Qani xolajonisi oxirgi ko‘rpachani o‘zingiz yig‘ing.
<i>Xola to‘rtinchi ko‘rpachani yig‘adi.</i>	
Kayvoniy ona:	Qani amakijonlari to‘y bolaning yong‘oqlarini bering. Ilohim to‘y bolamiz mana shu yong‘oqdek uzoq umr ko‘rsin, serfarzand bo‘lsin.
<i>Kayvoniy ona ko‘rpacha ustidan 5-6 ta yong‘oq tashlaydi.</i>	
Hamma:	Omin
Kayvoniy ona:	Onasi to‘y bola uchun atab tikilgan belbog‘ni bering. Ilohim to‘y bolamiz hamisha belida belbog‘li yigit

	bo‘lsin.
Hamma:	Omin
<i>Kayvoniy ko ‘rpachalar ustidan belbog‘ yopadi.</i>	
Kayvoniy ona:	Mana “Taxmon urar” marosimni ham o‘tkazib oldik. Endi to‘y bolani o‘rtaga olib bir yoshlar o‘yin kulgi qilinglar. Ilohim bolamiz sizlar kabi o‘ynab-kulib katta bo‘lsin. Ammajonisi jiyanigizga atab bir qo‘shiq ayting.
<i>Amma tomonidan “Jaqida” qo‘shig‘i aytildi. Qo‘shid dan so‘ng sunnat to‘yi bo‘layotgan bolani xolasi davraga ko‘tarib olib keladi. To‘y bolani alqab yangi sarpolar kiydirishadi.</i>	
Xola:	Ey, jiyanim ham kelib qoldi. Men o‘z qo‘llarim bilan unga atab to‘y chopon tikib kelganman. Qani bir kiyintirib to‘y bola qilib qo‘yay o‘zim.
<i>Amma bolaga to‘n kiydiradi.</i>	
Hamma:	Qulluq bo‘lsin, ilohim bundan ulug‘lariga munosib bo‘lsin.
Amma:	Xolajonisi, siz jiyanimizga to‘n tikkan bo‘lsangiz. Biz ham qolishganimiz yo‘q o‘z qo‘llarim bilan bosh kiyim tikib kelganman. Ilohim

	jiyanimning boshi omon bo‘lsin.
	To‘y bolajon o‘ynasin, Dikir-dikir o‘ynasin. Bunga tikon kirmasin, Ko‘zi qattiq bandalarni Shunga ko‘zi tegmasin.
<i>Amma bolaga bosh kiyim kiydiradi.</i>	
Kayvoniy ona:	Ilohim farzandimizning rizqi ulug‘ bo‘lsin, uning farzandlarini to‘ylarini ko‘rish barchamizga nasib etsin.
Hamma:	Omin
Kayvoniy ona:	Qani bo‘lmasa urf-odatimizga ko‘ra yigit-qizlarimiz bir aytishuv aytmaydilarmi. O‘g‘il to‘ylarimizning ko‘rki odatlarimiz bilan chiroqli. To‘y bolamiz ham sizlarning qatoringizda katta bo‘lib, jiyanlarining to‘ylarida mana shunday aytishuvlar aytib yurishi nasib etsin.
<i>Hamma bolani o‘rtaga olib endi bir aytishuv qilaylik, deb aytishuvni boslashadi.</i>	
Yigit:	O‘lan dedim men senga, O‘lan ayt javobinga. Agar senga jutkazsam, Qolmagin tovonimga.

Qiz:	O‘lan so‘zim terdim-o, Senga navbat berdim-o. Shu o‘landa jutkazsam, Senga shahar berdim-o.
Yigit:	Qiz degan qoshin juvar, Chechalari o‘sma qo‘yib. Oynasima kuyyasima, Erkalashar suyib-suyib.
Qiz:	Osmondagи o‘rdakni, Otib olaman dema. Sen menga o‘lan aytib, Yutib olaman dema.
Kayvoniy: <i>Tog‘a to‘y bolani ko‘tarib oladi. Qolganlar birga doira chalib raqsga tushib qo‘shiq aytib chiqib ketadilar.</i>	Ey rahmat bolalarim, aytishuv man bundoq bo‘libdi, mening ham yoshligim esimga tushib ketdi. Qani bo‘lmasa usta to‘y bolani kutib qolmasin tog‘alari tezroq jiyaningizni toyiga mindiring. Qani hamma sunnat to‘yiga.

XINOBANDON MAROSIMI

Respublikamizning turli hududlarida ming yillar davomida shakllangan to‘y marosim urf-odat, an’analarmizning o‘ziga xosligi avvalo bu milliy qadriyatlar tizimining har xil hududlarda mavjud bo‘lganligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan olaganda o‘zbek nikoh to‘yi marosimi folkloarning janrlar tarkibi, undagi turli tuman urf-odat, rasm-rusm va irim-sirimlarning rang barangligi

bilan ajralib turadi. Ana shu rang baranglikning ayrim jihatlari bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Misol uchun “Nikoh to‘yi” – balog‘atga yetgan yigit bilan qizning o‘zaro roziligi bilan oila qurishi, bir yostiqqa bosh qo‘yishi, kelin va kuyovning nikohini nishonlash marosimi hisoblanadi.

To‘yning birinchi kuni haqida gap ketganda, shularni ham ta’kidlash kerakki, ko‘pgina joylarda shu kuni kelin dugonalari bilan yaqin qo‘shnilarining yoki tog‘asining uyida alohida davra qurishib “qizlar majlisi”, “qiz oshi” yoki “china” o‘yinlarini o‘tkazganlar. Bunda kelinning dugonalari, tengqurlari, mahalla-ko‘ylari va uzoq-yaqindan kelgan qarindoshlari ishtirok etib, uning shodligiga shodlik qo‘shishga harakat qilganlar.

Shular qatorida Samarqand viloyati Samarqand shahrida to‘ydan bir kun oldin kelinning uyida “Xinobandon marosimi” o‘tkaziladi. Xinobandon marosimini o‘tkazishdan maqsad yosh kelin-kuyovning yangi hayotga qadam qo‘yishi va yorug‘lik timsolida keladi. Qiz bolaning qo‘llariga xino qo‘yilishi, o‘z navbatida uning to‘y kuni yaqinligi, yuzi yorug‘ hamda belgili ekanligini bildirgan. Xononi qizlarimiz qoshlariga, sochlariga hamda qo‘llariga qo‘yishgan. “Xino oyoqdagi turli xil yuqumli kasalliklar hamda shamollashni oldini oladi”, - deb, yoshi o‘tgan momolar xononi oyoqlariga ham qo‘yishgan. Xino qo‘yishning turli xil shakllari va ma’nolari mavjud. Jumladan, bo‘lajak kelinning qo‘llariga quyosh tasviri tushirilgan. Bundan ma’no shundaki, kelinning yuzlari quyoshdek yaraqlab, hayot yo‘llari ravon, qo‘llari chaqqon bo‘lish niyatida shu tasvir tushirilgan. “Xinobandon marosimi” qizning ya’ni bo‘lajak kelinning uyida bo‘lib o‘tadi. Marosimda asosan ayollar ya’ni kuyov hamda kelin yangalari, kelin dugonalari, bo‘lajak qizning qaynonasi hamda onasi va yaqin qarindoshlari ishtirok etishadi. Kelinning qo‘llariga asosan dugonalari, yangalari tomonidan yaxshi niyatlar bilan xino qo‘yiladi.

Qizlar davrasidan kelinni olib chiqib ketish ham ma’lum urf, rasmlar bilan bajarilgan. Bulardan biri quda tomondan “Qiz puli” to‘lash bo‘lsa, ba’zi joylarda u “Ajratqi” deb yuritilgan. Ana shu pul, ajratqi berilgandan keyingina

qizlar kelinni olib ketishlariga rozilik bergen, bo‘lmasa uzoq vaqtgacha kelinni qo`llanmay, berkitib qo‘yganlar.

XINOBANDON MAROSIM SSENARIYSI

(Samarqand viloyati misolida)

<p><i>Sahna Samarqad viloyati odatlariga mos ravishda bezatilgan. Qizlar sahnaga kelinni olib chiqishadi.</i></p>	
Qaynona:	Qani yanga mullolari kelinimizni olib chiqing, xino qo‘yish marosimini boshlaymiz. Lekin avval kelinimizga atalgan yaxshi niyatlar bilan olib kelingan sarpolarni kiydirib kelinimizni yasantirsak.
Yanga:	Qani unda qaynona onasi keliningizga atalgan sarpolarini bizga bering.
Qaynona:	Bismillohu Rahmonu Rahim. Ilohim kelinimning qadami qutlug‘ kelsin. Qo‘shgani bilan qo‘sha qarisin. O‘g‘lim bilan bir umr baxtli hayot kechirsin. Qo‘limdagи bu tilla qoshni kelinimga atadim. Bu tillaqosh juda qadimiy bo‘lib kelinimizning boshi toshdan bo‘lsin, deb atayin yassatirib kelganman.
Yanga:	Ey, barakalla qaynonaonajonisi, barakalla. Ana endi onajonisi qizingizga atalgan sovg‘alaringizni olib kelsangiz.
Onasi:	Ilohim boshing toshdan bo‘lsin. Borgan joyingda tub qo‘yib palak yoz.

	Qaynonagga kelin emas qiz bo‘lgan. Qizimga atab qadimda momolarimiz taqib kelinlik gashtini surishgan zebugardoni sovg‘a qilmoqchiman. Zebigardonning ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Zebigardonda qalampir munchoq qizil ko‘zli toshlar mavjud, ya’ni qalampir munchoq qizimni yomon ko‘zlardan asraydi. Qizil ko‘zli tosh esa qizginamning husniga yanada husn qo‘shib turadi.
Yanga:	Qizposhshalar sizlarning ham dugonajonizga ataganlaringiz bormi?
Dugonasi:	Dugonamga atab bilakuzuk sovg‘a qimoqchiman. Dugonajon illohim baxtli taxtli bo‘lgan. Qo‘llaring chaqqon bo‘lsin qaynonang xizmatlarini yelib-yugurib qilgin.
Yanga:	Mana kelinimiz ham tayyor endi xino qo‘yish marosimini ham boshlasak bo‘ladi. Qani buvijon o‘zingiz yaxshi niyatlar bilan qizimiz qo‘llariga xinoni qo‘yib bersangiz.
<i>Kelining qo‘llariga yaxshi niyatlar bilan xino qo‘yiladi va dugonalari tomonidan qo‘sinq va raqlar ijro etiladi.</i>	<p>Ey nigori nozanin, Yak dardam nazda bishu, Az ilabod g‘ussabidu, Dilu maro g‘ussamade. Ey yoriman, janoniman,</p>

	<p>Jon dil bari, janoniman. Xurshidi taboniman, G‘unchai labro kishu. Yak dardam nazda bishem Az ilabon g‘ussabidu dilumaro Ey joniman janoniman Jon dilbari janoniman Xurshidi toboniman.</p>
Yanga:	Ana, kuyov navkarlar ham kelishibdi.
Kuyov jo‘ra:	Qani, yanga mullo kelinimizni olib chiqing, biz kelinimizni bo‘lajak uyiga olib ketsak.
Yanga:	Ey, shoshmang, shoshmang qani bir kelin dugonalariga atalgan qo‘shiqlarni eshitsak. Bir o‘yin kulgu qilsak nima dedilar.
Kuyov jo‘ra:	Yangajon bu kelinimizni ko‘rib Samarqandni qizlarini chiroyli ekanligiga yana bir bor iqror bo‘ldim. Agar ruxsat bersangizlar bir qo‘sinqaytib bersam.
Kuyov jo‘ralar:	Samarqadcha o‘ynang do‘stlar, yoronlar, Ko‘ksi olov shiddatlari boronlar. Qizchalari bibixonim avlod, Jaji o‘g‘lonlari sohib quronlar. Naqorat: Samarqandning navolari boshqacha, Bog‘ichinor havolari boshqacha. Injabiyo, desam kulib nozlanib, Qizlarining xayolari boshqacha.
Kelin dugonalar:	Mehmon kelsa xush ko‘rdik, hay deydilar,

	Keling, qani keling, zar deydilar. Pista bodom sho'r danagi oh mazza, Payshambani xalvosidan yeysilar.
Yanga:	Ey, ko'p yashang, ko'p yashang. Sizlarga ham go'shanga kuyov bo'lish nasib etsin. Ana endi kelin kuyovimizni duo qilaylikda. Ertanggi to'yga tayyorgalik qilsak.
Qaynonasi:	Ilohi omin. Ilohim ikki yosh baxti bo'lsin. Qo'shgani bilan qo'sha qarib serfarzand serdavlat bo'lishsin .
<i>Kelinni olib qo'shiq aytib o'ynab sahnadan chiqib ketadilar.</i>	
Kuyov jo'ralari:	Qutlug' bo'lsin to'ylari, yor-yor, yoronay, Mos tushibdi bo'ylari, yor-yor, yoronay. Baxtli kelin kuyovning, yor-yor, yoronay, Ko'p dirorzu uylari, yor-yor, yoronay. Kelinposhsha oy ekan, yor-yor, yoronay, Malohatga boy ekan, yor-yor, yoronay. Sevib sevilgan kuyov, yor-yor, yoronay, Baxt iqbolga boy ekan,yor-yor, yoronay. Uy eshigin ochamiz, yor-yor, yoronay, Yo'liga gulsochamiz,yor-yor, yoronay.
Qizlar:	Ko'rmanasiz o'r bo'lsa, yor-yor, yoronay, Kelin yuzin ochamiz, yor-yor, yoronay.
Yigitlar:	Jon qizlarjon shoshmangiz, yor-yor, yoronay, Hadingizdan oshmangiz, yor-yor, yoronay. Mard bo'lmasa shu yigit, yor-yor, yoronay.

«KELIN SALOM» MAROSIMI

Ajdodlarimizning e’tiqodiy inonchlarini o‘rganishda o‘zbek xalqining nodir badiiy-estetik qadriyatları, ya’ni marosim, urf-odat, an’ana va xalq og‘zaki ijodi boyligini tadqiq etish, ularning ijobiy jihatlaridan o‘rinli foydalanish, unutilib ketgan ma’naviy merosning uzvlarini qayta tiklash, ommalashtirish muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

Xususan, o‘zbek nikoh to‘yi marosimlari tizimiga mansub “kelin salom”, “kuyov salom”, “o‘lan”, “yor-yor” kabi folklor janrlari o‘ziga xos ijro yo‘li va ijro shakliga ega. Kelinning atrofini o‘rab olgan xotin qizlar “yor-yor” aytishib, “kelin salom”ga bosh egdiradilar. Eshikdan kirishdagi dastlabki “kelin salom” ham turli joylarda turli shaklda o‘tkazilib kelingan. Kelinni kuyovnikiga olib kelish bilan bog‘liq bo‘lgan udumlar, turli tumanlarda har xil nishonlanadi. Ular ma’lum darajada bir-birlaridan farq qiladi.

Biz mavzumizga taaluqli bo‘lgan Toshkent shahriga xos bo‘lgan “Kelin salom” udumini ko‘rib chiqamiz. Nikoh to‘yi udumiga ko‘ra to‘yning ertasi kuni kuyovning barcha yaqin kishilari, qarindosh-urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilar kelinga atab sovg‘alar olib keladilar. Ushbu kun kelinning onasi boshchiligidagi kelin tomon ayollari kuyov uyiga “Yuz ochdi” marosimiga yig‘iladilar. “Kelin salom” marosimi – nikoh to‘yi marosimlaridan hisoblanadi. “Kelin salom” marosimi turkiy va boshqa xalqlarda turli shakllarda uchraydi. Toshkent shahrida nikoh to‘yi bo‘lgan kunning ertasiga, tong chog‘ida kuyov hamda kelin tomondan kelgan qarindosh urug‘lar ishtirokida “Kelin salom” marosimi o‘tkaziladi. Kelinning yangalari va ayol qarindoshlari to‘y kechasi kelin bilan birga kuyovning honadonida qoladi. Quda taraf nikohdan so‘ng kelin tomondan qolgan mehmonlarni alohida ziyofat qilib mehmon qiladilar. Erta tongdanshir choy bilan siylangan yangalar kelinni yasantirib “kelin salom” marosimini o‘tkazishga tayyorlanishadi va xonodon egalarigabelgi berishadi. Shundan so‘ng kelin yanga yoki yoshi ulug‘ kayvoniy ona kelinni yonida duo-qilib “kelin

salom”ni boshlaydi. “Kelin salom”ni boshida mana shunday chiroyli kunlarga shukronalik qilib, Allohga va payg‘ambarlarga salom berishdan boshlanadi va keyin xonadon kattalariga, ana undan keyin kelin qaynona-qaynotalariga salom beradi. Kelin ta’zim bilan egilib-egilib salom beradi va ular salomga javoban kelinning boshiga ko‘rmana qo‘yishadi. Dasturxonchi ularga kelin nomidan turli sovg‘alar (kiyimlik mato, ro‘mol, belbog‘ va boshqa sovg‘alar) topshiradi. Toshkent “kelin salom”ining o‘ziga xos xususiyati, ya’ni, boshqa hududlardan ajralib turadigan jihat, “Kelin salom” so‘nggida “Alla bolam” udumi o‘tkaziladi. Bu udum faqatgina Toshkent shahrigaxos bo‘lib, unda kelinka kelajakda shirin-shirin farzandlarning onasi bo‘lishi niyat qilib o‘tkaziladi.

Izlanishlarim natijasida shunga guvoh bo‘ldimki, Surxon vohasi udumiga ko‘ra “Kelin salom” marosimi “Bet ochar” deb nomlanar ekan. Surxon vohasidagi “Betochar” rasm-rusumi nikoh to‘yining ertasi kuni o‘tkazilar ekan. Bunda kayvoniylar bir yosh bolaning qo‘liga o‘qlov yoki mevali daraxt shoxidan sindirib olingan novdani tutqazadilar. Yosh bola qo‘lidagi o‘qlov bilan yoki novda bilan kelinning boshiga solingan maxsus yopinchiqni ko‘tarib yuzini ochar ekan. Kelinning yuzidagi yopinchig‘ini o‘qlov yoki mevali daraxt novdasi yordamida olib tashlashning ham o‘z ramziy ma’nolari bor. O‘qlov rizq-ro‘z, qut-baraka timsoli sanaladi. Mevali daraxt novdasi esa, kelin serfarzand bo‘lsin degan ma’noni anglatar ekan. Surxon vohasi “Bet ochar” marosimi so‘ngida kayvoniylardan biri isiriq qatuz, garmdori solib tutatishar ekan va kelinning atrofidan aylantirib “niyati shifosini bersin, senday kelinning insof-topig‘ini bersin”, deyilar ekan.

Har bir hududning o‘ziga xos va betakror udumlari mavjud. Otabobolarimizdan qolgan bunday udum va marosimlarimizni asrab-avaylab kelajak avlodga benuqson yetkazib berish biz yosh folklorchilarning oldimizga qo‘yilgan ulkan vazifamizdir.

“KELIN SALOM”MAROSIM SSENARIYSI

(Toshkent shahri misolida)

<p><i>Kelin tarafdan kelgan yangalari va uch-to 'rt katta xotinlar nikoh to 'yidan so 'ng kuyovning uyida mehmon bo 'lib qolishadi. Quda taraf ular uchun alohida ziyofat berishadi. Kelinning yangalari erta tongdan shirchoylarni ichib bo 'lib, sahnaga chiqib kelishadi</i></p>	
Zarnigor:	Voy qoqindiq tong otib, xo'roz qichqirgani qachon edi, ha biz qachon bu kelinimizni yasatib, sarpolarini taxlab, kelin salom marosimini o'tkazamiz?
Yulduz:	Ha o'rgilay yangajonisi, kecha o'ziyam zab bazm bo'ldida
Zarnigor:	Voy albatta, rosa o'ynabmizda o'ziyam
Yulduz:	Ha, bu quda xolayam juda zo'r mehmon qildilarda. Ertalabdan shir choylarni mazza qilib ichib sal bo'masa "kelin salom" marosimini o'tkazish esdan chiqibtiyu a ?
Zarnigor:	Ha, man kelinimizni yasantirib tayyor qilib keldim
Yulduz:	Kelin salooooom, assalom kelin salom
<p><i>"Kelin salom assalom" deb belgi berishgandan so 'ng, kelinni sahnaga kelin salom marosimini o'tkazishga yor-yorlar sadosi bilan olib kelishadi</i></p>	
	Hay-hay o'lan jon o'lan,

	<p>Kelin keldi,yor-yor.</p> <p>Kelin bilan honadonga,</p> <p>Davlat keldi,yor-yor.</p> <p>Hay-hay o‘lan jon o‘lan,</p> <p>Baxtli bo‘ling,yor-yor.</p> <p>Qo‘sha qarib bir umrga,</p> <p>Baxtli bo‘ling,yor-yor.</p>
<i>Yor-yor bilan kirib kelishadi.</i>	
Zarnigor:	<p>Oftobi anbarim, xush keldingiz.</p> <p>Ikki diydam sarvari,</p> <p>Xush keldingiz.</p> <p>Siz uchun oy kun mushtoq edik,</p> <p>Alp yigitning qallig‘i,</p> <p>Jonim kelin, xush keldingiz.</p> <p>Mana kelinimizni ham obkevoldik kelinimizning qadamlari ilohim qutlug‘ kelsin.</p> <p>Bo‘lmasam “kelin salom” marosimini boshlasak, xonardon egalari kelinimizning salomlarini qabul qilib olinglar.</p>
Yulduz:	<p>Qani boshladik unda</p> <p>Odamlar- u? odamlar,</p> <p>Bog‘da bitgan bodomlar.</p> <p>Eshitmadim demanglar,</p> <p>Kelin salom berarlar.</p> <p>Salom-salom yor-yor,</p> <p>Assalom kelin salom.</p>

	<p>Avval boshlab Allohni, Yod etaylik yoronlar. Payg‘ambarlar ruhini Shod etaylik yoronlar. Salom-salom, kelin salom, Avval Allohdan salom, Payg‘ambarlarga salom.</p>
Yulduz:	<p>Marhamat qaynona-qaynotalari kelin salomni qabul qilib olinglar sizlarga alohida salom berarlar.</p>
Zarnigor:	<p>O‘g‘lim bor deb, quvongan, Kelin olib suyungan, Qabul aylang, qaynonasi Qabul aylang, qaynotasi Sizlarga salom, yor-yor, Salom-salom kelin salom, Ota-onalariga salom.</p>
Zarnigor:	<p>Qani kelaqolinglar, yugurib yelib xizmat qilayotgan ammajon, xolajonlari sizlargayam kelinimiz alohida salom qiladilar.</p>
Yulduz:	<p>Qora qoshi o‘smini, Shahlo ko‘zi surmali, Qabul aylang amma-xolalar, Sizlarga salom, yor-yor. Salom-salom kelin salom, Amma-xolalarga salom.</p>
Yulduz:	<p>Marhamat xizmatda turgan amakilari, tog‘alari kelaqolinglar. Kelinimiz sizlarga salom</p>

	qiladilar.
Zarnigor:	Mehmon kelsa xushlagan, Mehmonxona bo‘sh degan, Qabul aylang, amaki-tog‘alari, Sizlarga salom, yor-yor. Salom-salom kelin salom, Amaki-tog‘alariga salom.
Yulduz:	Yigitlarning sardori, Chiroyli kelin xaridori, Eshitib qo‘ying, kuyov to‘ra, Sizga salom, yor-yor. Salom-salom kelin salom, Kuyov to‘raga salom.
Zarnigor: <i>Hamma kelib kelin bilan ko‘rishib ko‘rmanasini tashlab ketadi. Har bir kelgan mehmonga kelin ta’zim qilib uch martta salom qiladi. Marosim oxirida kayvoniy onaxon duo qilib hammani dasturxonga taklif etadi.</i>	Bo‘ynimdagи marjonim, To‘kilib ado bo‘ldi, Sizga aytgan salomimiz, Shu joyda ado bo‘ldi. Salom-salom kelin salom, Mehmonlarga ko‘p salom.

"TO‘QQIZ TABOQ" MAROSIMI
(Qashqadaryo viloyati misolida)

Qashqadaryo udumlaridan biriga aylangan "to‘qqiz taboq" nikoh to‘yida kuyov va uning jo‘ralari kelinni olib ketish uchun kelishganida bajariladigan odatlardan biri. An'anaga ko‘ra, kelinning uyida kuyov va uning jo‘ralarini mehmon qilish uchun maxsus xona tayyorlanib dasturxonga to‘qqiz xil tansiq taomlar tortiladi. Qashqadaryoning o‘ziga xos taomlaridan: palov, lochira, pishgan tuxum, g‘ilmindi, yupqa, qatlama, sho‘rva, shirguruch, chuchvara kabi taomlar uyning ichidagi bezatilgan dasturxonni to‘ldirib turadi. Kuyov va jo‘ralari uygaga kirdi uyning to‘rida kuyov yaqin jo‘rasi bilan o‘tiradi. Uyning to‘riga ya’ni kuyovning oldiga, qatlama va patir juft qilib qo‘yiladi kuyovning jo‘rasi ikkala yosh juft bo‘lib ayrilmasdan baxtli yashasin degan maqsadda juft qilib sindiradi. To‘y uchun so‘yilgan qo‘y yoki molni iligidan kuyovning oldiga alohida tovoqqa tortilgan. Bu ilikni dastlab kuyov qoqib yegan va davradagi kuyovnaykarlari ham "shu kunga yetaylik", deb yaxshi niyat qilib, talashib-tortishib yeganlar. Dasturxonagi taomlarni yeb bo‘lgach, o‘rtaga ayollar jelagi* to‘shalgan va kuyov va uning jo‘ralari ana shu jelakning ustiga pul tashlaganlar. "To‘qqiz toboq" udumi bajarilgach, kelin tomon kuyovga alohida sarpo kiydirgan, jo‘ralariga esa belbog‘ bog‘laganlar. Bu udum Qashqadaryoning ba’zi bir tumanlarida ozgina boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin. Bu azaldan an’ana bo‘lib, bizning ota bobolarimiz tomonidan og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan o‘ziga xos zavqli marosimlarimizdan biridir, desam mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bu udum Surxondaryo viloyatida ham “to‘qqiz toboq” marosimi Qashqadaryonikiga juda o‘xshash bo‘lishi ko‘p ko‘zatiladi. Bunga sabab oldingi davrlarda ko‘chmanchi xalq bo‘lib, urug‘ aymog‘icha tishib ketganligi sababli insonlari ham yashash tarzi, urf-odat marosim udumlari ham juda o‘xshashdir. Aslida "to‘qqiz toboq" marosimi ham "Alpomish" davridan bizlarga o‘tib kelgan.

* jelag –yoshi katta ayollar boshiga yopadigan maxsus yoping‘ich

"TO‘QQIZ TABOQ" MAROSIM SSENARIYSI

(Qashqadaryo viloyati misolida)

<p><i>Sahna milliy kashtalar, ko‘zalar, savatlar tumorlar, ko‘zmunchoqlar, ko‘ztumorlar, turoqlar, har xil atlas mato va rang- barang gullar bilan bezatilgan.</i></p>	
<p>Kelining xolasi:</p>	<p>Qani kelinposhshalar bo‘linglar hademay kuyov novkarlar ham kelib qoladi.</p>
<p><i>Uzoqdan kuyovnavkarlarining karnay-surnay sadosi ostida o‘yin kulgu qilib kelayotgan ovozi eshitiladi.</i></p>	
<p>Kelining xolasi:</p>	<p>Kuyov novkarlar kelishayapti. Kelinimiz tayyor bo‘lgan bo‘lsa olib chiqinglar.</p>
<p><i>Kelin tomon yuzlari yopilgan, ibo hayo andishalik bilan turgan kelinni olib chiqadi.</i></p>	
<p><i>Kelining xolasi kuyov novkarlarning oyog‘i ostiga poyondoz to‘shaydi va kuyov bola poyondozni ustidan yurib o‘tayotganda kuyov jo‘ralar poyondozni tortib o‘zaro talashib yirtishadi.</i></p>	

Kelin kuyov va uning jo‘ralariga ta’zim qiladi.	
Kuyov novkar:	Ko‘p yashang baxtli bo‘ling
Kelinning otasi:	Qani uyga kiringlar yigitlar, dasturxonimiz sizlar uchun ochiq,qani marhamat.
Kuyov jo‘ra:	Uyga kirish qochmas, bir chiroyli o‘yin kulgu qilsak nima deysizlar.
Hamma:	Qani, qani.
	<p style="text-align: center;">“O‘YNANG CHECHA”</p> <p style="text-align: center;">qo‘shig‘i aytildi.</p> <p>Qashqadaryo elima, Belbog‘im baylab belima, Elimni bayram to‘yiga, Do‘mbiram olib keldima. Momom navot bersina, Yurakga quvvat bersina, Har bir o‘zbek farzandi, Eliga to‘ylar bersina.</p> <p>Naqorat:</p> <p>O‘ynang checha o‘ynang, Akam bilan o‘ynang, Bugun bayram bugun to‘y, O‘namaganiga qo‘ymang.</p>

Kelinning tog‘asi:	Ey yigitlar gap yo‘q, mazza qildik qani endi, dasturxonimizga marhabo
Hamma:	Qani, qani,
Kelinning tog‘asi:	Ey yigitlar yaxshi keldingizlarmi. Kuyovimiz shumi, ha, ha, mana tanishib ham oldik, ey kuyov jo‘ra, qatlama patirlarni sindiring.
<i>Yigitlar bilan birin-birin ko‘rishib boradi. Uyning to‘ridagi kuyovning yonida turib kuyov jo‘ra, patir bilan qatlamani juft qilib sindiradida kuyov navkarlargacha uzatadi.</i>	
Kelinning tog‘asi:	Ey yigitlar yaxshi o‘tiribsizlarmi, qani mana bu palovxon to‘radan olinglar.
Hamma:	Qani, olinglar qani.
<i>Hamma oshni yeb turganda, kuyov to‘ra uyalgandek boshini egib oshdan yemay turadi, kuyov novkarlari kuyov osh yemayapti deb hayron bo‘lgandek kuyovga osh yeyishini aytadi.</i>	

Kuyov jo‘ra:	Ey quda-tog‘a bu kuyovimiz osh yemayaptiku, quda buvani chaqiring. Kuyovining osh yemayapti deng.
Kelinning otasi:	Nega oshemaydi, oling, kuyov bola.
Kuyov jo‘ra:	Ey quda buva, shu ikkala yoshga biron bir narsa atasangiz yeydida.
Kelinning otasi:	Xo‘p bo‘ladi, bizning hisobda bitta buqada.
Kuyov jo‘ra:	Ey kuyovimiz yana osh yemayapti.
Kelinning tog‘asi:	Ey bizning hisobdan bitta qo‘chqorda.
Hamma:	Ahay do‘stim tabriklayman, buyursin.
<i>Kelinning tog‘asi qani olinglar deb chiqib ketadi</i>	
Kelinning tog‘asi:	Xush kelibsizlar mehmonlar, Mana bu ilikni kuyovimizga atab pishirganmiz. Kuyovimizning iligi to‘q bo‘lsin. Qani olinglar.

<i>Kelinning tog‘asining qo ‘lidan ilikni olib, kuyovga kuyov jo ‘ra yedirib qo ‘yadida kuyovnovkarlarga ulashadi. Kuyov ilikni qoqib tatib yeb ko ‘rgach, kuyov navkarlar ilikni talashadi.</i>	
Kelinning tog‘asi:	Ha yigitlar, kamchiliklar yo‘qmi?
Kuyov jo‘ra:	Quda tog‘a, bu Qashqadaryo viloyatimizda kuyovni to‘qqiz xil ovqat bilan siylashadi-ku, qani bu to‘qqiz xil ovqat olib kelinglar
Kelinning tog‘asi:	Ha yigitlar, bizlar ham xalqimizni urf-odatlariga amal qilib sizlar uchun to‘qqiz xil ovqat tayyorlaganmiz, hozirda yigitlar.
<i>Shu yerda barcha 9 xil ovqatlar bilan dasturxon bezatildi.</i>	
<i>Kuyov jo ‘ra qo ‘liga likopchani olib sindiradi</i>	
Kuyov navkar:	Ey do‘stim nima qilganingiz bu, yaxshi ish qilmadingiz.
Kuyov jo‘ra:	Do‘stim bu udumni men kashf qilganim yo‘q, ota-buvalarimiz ham kelgan balo-qazolar shunga ursin, degan maqsadda shu udumni qilishgan, ey do‘stim siqilmang shu ikkala yoshni baxtidan azizmi?

Kuyov novkar:	Ha do'stim, to'g'ri aytasiz.
Kelinning tog'asi:	Yigitlar bu yigitimiz qo'llarida do`mbira bilan kelibdi, demak bir termadan eshitar ekanmizda deydi.
Hamma:	Qani qani, bir eshitaylik baxshi.
Baxshi:	("To'qqiz toboq" haqida aytimini boshlaydi.)
Hamma:	Ey yashang baxshi, baraka toping.
Kuyov novkar:	Ey yigitlar mana tavoqlar to'la-to'la bo'lib keldi, to'lib qaytsin nima deysizlar, yigitlar.
Kuyov jo'ra:	Ey do'stim, to'g'ri aytasiz sag'al qolsa yodimdan ko'tarilay debdi.
Kuyov novkar:	Birinchi bo'lib kuyov to'raning o'zлari boshlab bersin.
Kuyov jo'ra:	Mana men kuyovning ham o'zimning ham nomimdan tashlaymanda do'stim.
Kuyov jo'ra:	Tog'ajon endi bizlar ham qaytsak nikoh to'yiga tayyorgarlik ko'raylik. Dasturxonga bir fotiha qilasizmi, degandim.
Kelinning tog'asi:	Iloho omin. Shu ikki yosh baxtli saodatli bo'lsin, hammamizni to'ylarga yetkazsin.
<i>Hamma uydan tashqariga chiqib ketadi.</i>	

<i>Kelinning yangalari kelinni kelinlik libosida kuyovni yoniga olib chiqadi.</i>	
Kelinning onasi:	Bir pas shoshmay turinglar menku yovimga atab, boshdan oyoq sarpo yig‘ib qo‘yganman. Qani kelinlar olib chiqinglar sarpolarni.
<i>Kuyovga to ‘n kiydirib jo ‘ralariga esa belbog‘ bog ‘lab qo ‘yadi.</i>	
Kuyov jo‘rasi:	Qudalar sizlarga katta raxmat, bizlarni shuncha hurmat qilib, dasturxonni to‘ldirib, hurmatimizni joyiga qo‘yganlaringiz uchun bundan boshimiz osmonga yetdi. Endi bizlar ham qaytsak, kelinimizni olib chiqasizlarmi, yo‘limiz ham ancha yiroq kech bo‘lmasdan yetib olaylik degandim.
<i>Kelinning yangasi kuyovning yoniga kelinni olib chiqadi</i>	
Kuyov jo‘ra:	Quda buva bir duo bersangiz, qizingiz va kuyoviningizni baxti uchun.
Quda buva:	Ovmin yurtimizda tinchlik, omonlik har birimizdi xonadonimizda to‘ylar ko‘p bo‘lsin, hammani to‘ylarga yetkizsin. Ovmin ollohu akbar.

<p><i>Kelinning otasi qizining peshonasidan o`pib xayrlashadi.</i></p>	
<p>Kelinning singlisi:</p>	<p>Igna ginamsindi deb, urding opam, yor o‘lan,</p> <p>Endi ketib boraman, tingin opam, yor o‘lan.</p> <p>Tarbo‘z palak ichinda,topdim tarbo‘z, yor o‘lan,</p> <p>Opam ketib borodir, qoldim yolg‘iz, yor o‘lan.</p> <p>Opam desam, qovurg‘am qayishibdi, yor o‘lan,</p> <p>Opam ketsa mayliga o‘tiraman, yor o‘lan,</p> <p>O‘ng qo‘limni uzukka to‘ldiraman, yor o‘lan,</p> <p>O‘ng qo‘limni uzugim ayishibdi, yor o‘lan.</p>
<p><i>Kelinning singlisi va kelinning otasidan boshqa hamma “yor- yor”lar sadosi ostida sahnadan chiqib ketadi.</i></p>	

	Olichani tagida qayroq yotar, yor o‘lan, Qizni olgan qudalar sayrab yotar, yor o‘lan, Qizni olgan qudalar asta yuring, yor o‘lan, Oq sut bergen onasi yig‘lab yotur, yor o‘lan. Qizni olgan qudalar asta yuring, yor o‘lan. Oq sut bergen onasi rozi bo‘lsin, yor o‘lan.
--	---

YUZ OCHDI MAROSIMI

O‘zbek nikoh to‘ylari janrlarining tarixiy ildizlari, qadimgi turkiy qavmlar dunyo qarshining turfa jihatlari, xususan, shomanlik, fetishizm, animizm, totemizm tushunchalari, ajdodlar kulti, hosildorlik g‘oyasi bilan bog‘liq e’tiqodlarga borib taqaladi. Jumladan, “yuz ochdi” marosimi ham shular jumlasidandir.

“Yuz ochar” Surxondaryo viloyatida kelin tushgan xonodon to‘yning ertasi kuni kelinchakning yuzini ochishga bag‘ishlab o‘tkaziladigan marosim. Surxon vohasi udumiga ko‘ra, “Yuz ochar” rasmiy nikoh to‘yining ertasi kuni bajariladi. Bunda kayvoniylarning shu xonodon egasi bo‘lgan bir yosh o‘g‘il bolaning qo‘liga o‘qlov yoki mevali daraxt shoxidan sindirib olingan cho‘pni tutqazadilar. Ana shu o‘qlovning uchiga oq paxta o‘raladi. Yosh bola qo‘lidagi o‘qlov bilan kelinning boshiga solingan maxsus yopinchiq ro‘molini ko‘tarib, yuzini ochadi. Shundan keyin o‘scha o‘qlov kelin yuzini ochgan o‘g‘il bolaning o‘ziga beriladi. Ba’zi joylarda kichkina o‘g‘il bolaning qo‘liga mevali daraxtning cho‘pi beriladi va o‘scha cho‘pning uchiga paxta yoki doka o‘raladi. Bola shu cho‘p bilan kelinning yuzini ochib yuboradi.

Kelinning yuzidagi yoping‘ichning olib tashlashda o‘qlov va mevali daraxt novdasidan foydalanish ham muayyan ramziy ma’noga ega. Ma’lumki, o‘qlov-hamir ovqat tayyorlashda ishlataladigan ro‘zg‘or anjomi bo‘lib, rizq-ro‘z, qut-baraka timsoli sanaladi. Marosimda mevali daraxt novdasining qo‘llanilishi esa, kelin serfarzand bo‘lsin degan ma’noni bildiradi.

“Yuz ochar” marosimi tugugach, kuyovni ona, kelinni kuyov tomon qarindoshlari hamda qo‘ni-qo‘snilar xuzuriga boshlab keladi va “Kelin salom” qo‘snilarini aytib, hazil-huzul bilan kelinga yangi oila a’zolari hamda bu xonodonning yaqin qishilarini tanishtiradi.

“Kelin salom”da nomi aytilgan kishilar kelinga ko‘rmana beradilar.

Oq bulutning ostidan,

Oyday kelin kelibdi.

Ko‘k bulutning ostidan

Kunday kelin kelibdi.

Keliningiz og‘a inilar,

Kelin betin ochadi,

Ko‘rmanani bergenlar,

Tanga tilla sochadi.

Respublikamiz viloyatlarida “kelin salom” odatda, to‘yning ertasi kuni o‘tkaziladi. Surxondaryo viloyatida ham to‘yning ertasi kuni “Yuz ochar” marosimi o‘tkaziladi. Hovliga gilam va ko‘rpacha to‘shaydilar. Uning ustasi bo‘lgan ayol salomini boshlaydi.

“Yuz ochar” marosimi tugagach, keksa momo kelin nomiga duo o‘qiydi. Kelin ko‘rpachaga o‘tiradi. Kelining yelkasiga kuyovning choponini tashlab qo‘yadilar. Bu mehri issiq bo‘lsin, deganidir. Endi uning oldiga un solingan supra keltiradilar. Suprada to‘yda so‘yilgan dumba yog‘ini qaynonaning buyrug‘iga ko‘ra turli tarzda to‘g‘rashi kerak. Marosim tugagach kelinning qaynonasi uy joylari, bilan tanishtirib kelinni chimildiq uyga kuzatib qo‘yadi.

YUZ OCHDI MAROSIM SSENARIYSI

<p><i>Yor-yor sadosi ostida kelin hovliga taklif etiladi.</i></p>	<p>“Yor-yor” Taxta –taxta ko‘prikdek, Taxting bo‘lsin, yor-yor. Payg‘ambarning qizidek, Baxting bo‘lsin, yor-yor. Payg‘ambarning qizini, Ali olgan, yor-yor. Yor-yor aytib qiz uzatgan, Shundan qolgan, yor-yor, Payg‘ambarning qizini Kim ko‘ribdi, yor-yor, Ota-onamehriga yo Kim to‘yibdi, yor-yor. Oq miltiq, qora miltiq Otgan otam, yor-yor, O‘z qizini suyganiga Sotgan otam, yor-yor.</p>
<p>Kelin yanga:</p>	<p>Qani kayvoni ona “Yuz ochar” marosimimizni boshlaylik.</p>
<p>Kayvoni ona:</p>	<p>Boshlasak boshlaylik. Kelin qani siz nabiramni olib keling. Men bir mevali daraxt shoxini sindirib olgan cho‘pni uchiga paxta bog‘lab turaman.</p>
<p>Kelin yanga:</p>	<p>Xo‘p bo‘ladi</p>
<p>Kayvoni ona:</p>	<p>Qani bolam urf-odatlarimizga ko‘ra shu cho‘p bilan kelinni boshiga solingan maxsus yopinchiq – ro‘molini ko‘tarib yuzini oching.</p>

<i>Bola kelinning yuzidagi yoping‘ich ro‘molini olib tashlaydi.</i>	
Kayvoni ona:	Yashang bolam. Endi shu cho‘p sizga. Sizga ham yuzlari oyday kelin olib kelish nasibi ro‘z aylasin.
<i>Bola Yugurib xursand bo‘lib sahnadan chiqib ketadi.</i>	
Kayvoni ona:	“Yuz ochar” marosimimiz tugadi. Endi “kelin salom”imizni boshlaylik. Yangasi qani hovlimiz o‘rtasiga gilam va ko‘rpachalarni to‘shang.
<i>Yangasi gilam va ko‘rpachalarni to‘shaydi</i>	
Kayvoni ona:	“Kelin salom”chi qizimiz siz tayyormisiz?
Kelin salomchi:	Tayyorman.
Kayvoni ona:	Kelinimizning yangasi kelinni olib chiqing davramizga. Qani hammani “kelin salom”ga chaqiramiz. Boshladik.

Kelin salomchi:	Oy bulutning ostidan, Oyday kelin keladi. Kun bulutning ostidan, Kunday kelin keladi. Kelingiz-a kelingiz, Kelin salom olingiz. Kelin salom olgach so‘ng, Ko‘rmanasin beringiz. Oyog‘ida etigi, Oqsaqollarning tetigi, Qaynotasiga bir salom. Tovdan tushgan archaday O‘rab qo‘ygan bo‘xchaday Qaynonasiga bir salom. Joynamozi qo‘lida, O‘zi xudoning yo‘lida, Buvilariga salom. Anjir-jingir taqmagan, Odam isi yoqmagan, Ammalariga bir salom.
Kayvoni ona:	Kelin salom aytib kelinimizni oila a’zolari va yaqin kishilari bilan ham tanishtirib oldik. Qani endi kelinni momosi kelin bolangizga bir duo bering.
Momosi:	Toldayin burchuklasin, (barg yozsin) qaydayin qo‘zalsin, umarg‘ani moy bo‘lsin, jegani qo‘y bo‘lsin, qo‘shsha qarib menginaday bo‘lib jursin, baxtli bo‘lsin OMIN.

Xolasi:	Hurmatli mehmonlar va qarindoshlar yana bir marosimimiz bor. Kelinglar kelinimizni bir sinovdan o‘tkazib, kelinimizga kelgusi hayotdagи yaxshi niyatlar bildirib, o‘z irim-sirimlarimizni qilsak.
Xolasi:	To‘yda so‘yilgan qo‘yning dumbasini to‘g‘ratib ko‘ramiz. Kelnimiz qanchalik chaqqonligini bilib olamiz, ammasi sabzi to‘g‘raydigan taxta va o‘tkir pichoq obkeling. Endi buni sinov desa ham bo‘ladi. Kelin dumba yog‘ini qaynonasining buyrug‘iga ko‘ra turli tarzda to‘g‘rashi kerak.
Kelin yanga:	Qaynonasi keling keliningizga dumba yog‘ini to‘g‘ratib ko‘ring.
Qaynona:	Xo‘p bo‘ladi. Ilohim kelinimni to‘g‘ragani yog‘ bo‘lsin, qo‘llari barakali va shirin bo‘lib, o‘zi bilan davlat, baxt-omad olib kelsin.
Qaynona:	Bolam mantibob bo‘lsa yaxshi, bunisi sho‘rvabob bo‘lsin.
<i>Kelin sho‘rvabob qilib to‘g‘raydi.</i>	
Qaynona:	Ha sal o‘xshamadi. Mayli, o‘rganib ketasiz, endi oshbob bo‘lsin.
<i>Kelin oshbob qilib to‘g‘raydi.</i>	
Momosi:	Yashang bolam. Sinovlarimizdan o‘tdingiz endi bilmaganlaringizni qaynonangizdan o‘rganib olasiz.

Keling yanga:	Qani qaynonasi kelinizni endi uy joylariz bilan tanishtirib chillaxonaga kuzatib qo‘yasiz.
Keling yanga:	Amma xolalari endi sho‘x qo‘shiqlarimizni aytib bir o‘yin kulgu qilaylik. Nima deysizlar.
Ammasi:	Yangasi o‘zingiz boshlab bering unda.
Kelin yanga:	<p>Boshlasam boshladim.</p> <p style="text-align: center;">“Qo‘shig‘im qo‘shiq”</p> <p>Qo‘shig‘im qo‘shiq, Tomog‘im teshik. Jorti nonga jov jag‘ib bersang Aytaman qo‘shiq, Sovlig‘ining suti jo‘q, hoy momojon, jon momo,</p> <p>Ulog‘ining puti jo‘q, hoy momojon, jon momo,</p> <p>Kubisining jovi jo‘q hoy momojon, jon momo,</p> <p>Kadisining bovi jo‘q hoy momojon, jon momo,</p> <p>N-t</p> <p>Jingichkalar cho‘zilar, hoy momojon, jon momo,</p> <p>Juvon bobo cho‘zilar, hoy momojon, jon momo,</p> <p>Kelinchaklar so‘zilib, hoy momojon, jon momo,</p> <p>Farishtaday kerilar, hoy momojon, jon momo.</p>

	N-t
Kelin yanga:	Qani ammajonlari қолган о‘yin-kulguni ertaga davom ettirsak. Yuringlar bir kelinimizning qo‘lidan choy ichsak. Hamma dasturxonga marhamat
<i>Hamma sahnadan qo ‘shiq aytib chiqib ketdilar.</i>	

“KUYOV O‘TIR SIN” MAROSIMI

An’ana va marosimlar qadim zamonlardanoq odamlar diliga ezgulik baxsh etish bilan bir qatorda el-yurtni birlashtiradigan kishilarni o‘zaro hamjihatlikka, birdamlikka undaydigan, qadr-qimmat va mehr-muruvvatni kamol toptiradigan ulug‘vor qadriyatlar sirasiga kiradi. O‘zining ana shu xususiyatiga ko‘ra urf-odat va marosimlar jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etib kelgan. Shuning uchun ham har bir xalq o‘zining otababolari tomonidan yaratilib, asrlar mobaynida badiiy-estetik jihatdan sayqal topgan marosimlarni ko‘zqorachig‘idek asrab-avaylash hamda dilga yaqin qadryatlarni izchil rivojlantirish orqali taraqqiy etadi. Uzoq moziydan meros bo‘lib kelayotgan o‘zbek qadriyatlari orasida to‘ylar alohida ajralib turadi. Inson yashar ekan uning hayoti davomida quvonchli damlari, kimlari ko‘p bo‘ladi. Dilni yayratadigan voqeа, hodisalarни boshidan kechiradi. Tabiiyki, ushbu onlar udum va marosimlar siz bo‘lmaydi. Ana shu marosim, udumlar, tarzida o‘kaziladi.

Nikoh to‘yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud: uy ko‘rar, sovchilik, sep taxlar, to‘qqiz berish, qizoshi, qizlar majlisi, kelin tushirish, kuyovnavkar, kuyovoshi, yuzochdi, kelin salom, chorlar kabi marosimlar va ular bilan bog‘liq rasm-rusumlar. Ular hozirgacha saqlanib, amal qilinib kelinadi. Nikoh to‘yi marosimi bilan bog‘liq qadimiy marosimlardan biri bu “kuyov o‘tirsin”

marosimidi. Kuyov o‘z jo‘ralari bilan kelinni olib ketish uchun uning uyiga borganda, qaynota-qaynanasiga hurmat yuzasidan o‘tirmay turish odati. Kelinning qarindoshlari dastlab ota-onasi, so‘ng qarindosh-urug‘lari kuyovga o‘tirishga ruxsat berishadi. Ruxsat bermaguncha kuyov o‘tirmagan. Bu o‘znavbatida kuyovning kelinni ota-onasiga bo‘lgan hurmat-ehtiromi ifodasi hisoblanadi.

Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida “kuyovboshlar”, ya’ni kuyov jo‘ralar kuyovning uyiga kirib borishga cho‘zları uchun tayyorlangan xonaga kirib, uyning to‘rida qator bo‘lishib tikka turgan holatda birnecha bor salom solishgan. O‘tirishga ruxsat berilgach kuyov boshlatar yana kuyov jo‘ralarning sardori bilan kuyovdan boshqa yigitlar o‘tirishgan. Bir necha marta izin berishiga qaramasdan, kuyov va uning yaqin do‘sti o‘tirmasdan tavoze bilan egilib turaverishgan. Xonaga kelinni onasini chaqirishgan. Kuyovning qaynonasi hammaga eshittirib, “Ola sigirim bolasi bilan sizniki”, - deb o‘z hadyasini ma’lum qilgandan so‘ng kuyov va uning jo‘rasi o‘tirishgan¹⁵.

Qashqadaryolik qarluqlar udumiga ko‘ra, kuyov kelinnikiga kelganida chimildiq tutilgan va kuyov bilan uning jo‘ralari chimildiqli uyga olib kirilgan. Kuyov odob saqlab o‘tirmay turganida kelinning otasi va onasi: “O‘tiring kuyov, o‘tiring, davlatimizning sherigisiz, qizimizni sizga topshirdik sizni xudoga”, - deyishgach, kuyov o‘tirgan.

Buxoro viloyatida urf bo‘lgan “Kuyov o‘tirsin” udumiga ko‘ra, kelinni olib ketish uchun kelgan yigit qaynonasining uyida chimildiqqa kirganida odob va hurmat yuzasida o‘tirmay, tikka turaveradi. Kelinning onasi tomonidan bir qator kuyovga atalgan narsalar, masalan ot, uy, tuya kabilar hadya etilgan. Shundan keyin kuyov o‘ziga belgilangan joyga o‘tirgan¹⁶.

¹⁵ M.Jo‘rayev., L.Xudoyqulova. Marosimnoma. – Toshkent. 2008. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. B. 65.

¹⁶ M.Jo‘rayev., L.Xudoyqulova. Marosimnoma. – Toshkent. 2008. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. B. 65.

“Kuyov o‘tirsin” marosimi Toshkent viloyatida ham o‘zgacha urf-odatlar bilan o‘tadi. Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanidagi qishloqlarda nikoh to‘yi kuni kelinning uyiga kuyov hamda uning jo‘ralari karnay-surnay sadolari ostida kirib kelishgan. Kelinning uyida kuyov va uning jo‘ralari uchun chimildiqli xona tayyorlangan. Kuyov va uning jo‘ralari xonaga kirishgandan so‘ng, kelinning yangalari kuyovning oyoq kiyimini o‘g‘irlashgan. Kuyov xonaga kirganidan so‘ng, kuyov uchun atalgan maxsus yetti yoki to‘qqiz qavat ko‘rpachalar to‘shalgan. Azal-azaldan chimildiq ichidagi kuyovga atalgan ko‘rpachalar soniga qarab kuyovni kelinding uyidagi hurmati izohlangan. Agarda ko‘rpachalar soni yetti yoki to‘qqiz qavat bo‘lmasa kuyovni obro‘sni va hurmati yo‘q ekan deb izohlangan. Yetti hamda to‘qqiz soni qadimdan ilohiy hususiyaga ega.

Ushbu urf-odatlardan so‘ng kuyov va uning jo‘ralariga atalgan maxsus taomlar tortiladi. Birinchi bo‘lib o‘zbek milliy taomlaridan bo‘lmish chuchvara taomi tortiladi. Chuchvara taomini tortilishidan maqsad, kuyov dirkidek baquvvat bo‘lsin deyilgan. Kelinning yangalari tomonidan chuchvara tugilyotganda birdona chuchvaraning ichiga bodom mag‘zi solib tugilgan. Chuchvaraga bodom mag‘zini solinishidan maqsad, bodom azaldan juftlik ramzini bildirgan hamda yigitning baxti ochiqligidan va omadli ekanligidan dalolat bergen.

“KUYOV O‘TIRSIN” MAROSIMI SSENARIYSI

(Toshkent viloyati misolida)

<i>Sahna milliy kashtalar,</i>
<i>ko‘zalar, savatlar tumorlar,</i>
<i>ko‘zmunchoqlar, ko‘ztumorlar, turli</i>
<i>quroqlar, har xil atlas matovarang-</i>

<i>barang gullar bilan bezatilgan.</i>	
<i>Kelinning uyida kuyov va uning jo‘ralarini kutib olishga katta tayyorgarlik ko‘rishmoqda. Kuyov va uning jo‘ralari uchun maxsus xonada chimildiq o‘rnatilgan, ko‘rpachalar to‘shalgan. Sahna oldida ayollar chuchvara tugishyabti. Kelinning ammasi uyichidan chiqib keladi, bezatilgan dasturxon oldiga boradi.</i>	
Kelinning ammasi:	Kelin hoy kelin
Kelinning yangasi:	Labbay ammajon.
Kelinning ammasi:	Kuyov jo‘ralarga ko‘rpachalarini qalinroq qilib yozing chunki ko‘rpachalarning qalinligi ularga bo‘lgan hurmatimizni belgilaydi.
Kelinning yangasi:	Xo‘p bo‘ladi, ammajon
<i>Ko‘rpacha olib chiqib yozadi.</i>	
Kelinning ammasi:	Kelin uydan baxmal, adres ko‘rpachalardan yana olib chiqing kuyovning joyi 7 qavatdan kam bo‘lmisin. Kuyov o‘tirmasa gap ko‘payadi, kuyovi o‘tirmabdi degan.
Kelinning yangasi:	Xo‘p bo‘ladi

<i>Yana ko‘rpacha olib chiqib yozadi.</i>	
<i>Kelinning ammasi chuchvara tugayotgan ayollarning oldiga boradi.</i>	
Kelinning ammasi:	Bo‘p qoldinglarmi, ha chuchvaraga tugma solish esdan chiqmasin. Kuyovimiz abjir, mahkam, dirkidek bo‘lib yursin (deb tugmani ayollarga beradi, keliniga qarab). Kelin payondoz qani, tayyormi, hademay kuyovlar kelib qoladi.
<i>Uzoqdan karnay-surnay sadolari yangraydi.</i>	
Kelinning ammasi:	Kuyov navkar kelyapti kuyov uchun atalgan poyandoz qani. Olib kelinglar
<i>O‘yin kulgu bilan kuyov uchun tayyorlangan xonaga kuyov va uning jo‘ralari kirib kelishadi. Kuyovning jo‘rasi kuyov uchun to‘shalgan ko‘rpachalarning kamligini ko‘rib, kelinni yangasini chaqiradi.</i>	
Kuyovning jo‘rasi:	Yangi kuyovning hurmati shu bo‘ldimi, yangi ko‘rpachalardan olib chiqing. Yetti qavat bo‘lsa ham juda pas yana to‘samasangiz, kuyov o‘tirmaydi.
Hamma	E, kuyov o‘tirmayabti.

<i>Kelinning yangasi kelib kuyov uchun yangi ko 'rpachalar to 'shaydi.</i>	
Kuyovning jo‘rasi:	Yana opkeling do‘stimiz bundan balantiga loyiq.
<i>Kelinning yangasi yana ko 'rpacha opkelib to 'shaydi.</i>	
Kelinning yangasi:	Endi kuyov bola o‘tiring, bismillo deb o‘ng oyoq bilan o‘tirasiz qani keling.
<i>Kuyov o‘tiradi, kuyov jo‘ralari ham o‘tirishadi, kelin kuyovning oyoqkiyimini olib chiqib ketadi. Kelinning tog‘asi kelib duo qiladi.</i>	
Kuyovning o‘rtog‘i:	Aytganday do‘stim oyoq kiyimingga ehtiyot bo‘lasan, bu yerda oyoq kiyimni o‘g‘irlash urf- odati bor.
Kuyov	(Kuyov o‘rtog‘iga qarab pas ovozda) oyoq kiyimim yo‘q.
Kuyovning o‘rtog‘i:	Oyoq kiyimingni kelinning yangasi olgan bo‘lsa kerak. Oxirida biron shart aytса kerak, mayli sen uchun nima shartlari bo‘lsa bajaramiz.
Kelinning tog‘asi:	Xush kelibsizlar. Illoho omin yurtimiz tinch bo‘lsin, yoshlarimiz qo‘sghanlari bilan qo‘sha qarisin, kelasi yil farzad to‘ylarida xizmat qilish barchamizga nasib etsin, omin ollohu akbar.
Hamma:	Ollohu akbar

<i>Hamma bиргаликда duoga qo'l ochib omin qiladi. Mehmonlar uchun tayyorlangan taomlar olib kiriladi.</i>	
Kelinning tog‘asi:	Birinchi taom chuchvara, kuyovimiz abjir, qotma, dirkidek bo‘lib yursin, deb chuchvara tugilayotganda bir dona chuchvaraning ichiga tugmacha solib tugilgan. O‘sha tugmacha chiqqan yigitning baxti ochiqligidan va omadli ekanligidan dalolat beradi, kelasi to‘y o‘sha yigitnikida qani olinglar.
<i>Hamma chuchvara yeyishga tushib ketadi, kuyovning o‘rtoqlarining biri tugmani topadi va hammaga ko‘rsatadi.</i>	
Kuyov jo‘ra:	Ey Abbosjon, kelasi to‘y sizniki ekanda tabriklaymiz (hamma tabriklaydi).
<i>Kuyov va uning jo‘ralari taomlarni yeb bo‘lgach turishadi uy ostonasiga kelishadi. Kuyovning o‘rtog‘I kelinding yangasidan kuyov bolaning oyoq kiyimini so‘raydi.</i>	
Kuyov jo‘ra:	Do‘stimizning oyoq kiyimini bersangiz, yo‘l olis amallab uyga yetib olaylik.

Kelinning yangasi:	Bizlarda shunday bir odat bor. Kuyovning oyoq kiyimini o‘g‘irlash. Bitta shartimiz bor, agar ushbu shartni bajarsanglar, kuyovning oyoq kiyimini qaytarib beramiz.
Kuyovning jo‘rasi:	Qanday shart ekan, aytinglar.
Kelinning dugonalaridan biri:	Bizlar bilan “O‘lan” aytishasizlar
Kuyov jo‘ralar:	Agar biz yutsak raqsga tushib berasizlar.
Kelinning dugonasi:	Kelishdik boshladik unda.
<i>Yigit va qizlar tomonidan o‘lan ijro etiladi.</i>	O‘lan yolg‘on deganda, o‘lan yolg‘on, Yolg‘on emas, kampir bilan choldan qolgan. Buvay boboning boshida kema qolgan, To‘y-to‘ylab o‘lanaytmoq shundan qolgan.
Yigit:	O‘lan yolg‘on deganda, o‘lan yolg‘on, Yolg‘on emas, kampir bilan choldan qolgan. Buvay boboning boshida kema qolgan, To‘y-to‘ylab o‘lanaytmoq shundan qolgan.
Qiz:	Qoratog‘ning boshida qori bordir, Nurotada yaxshilaming bog‘i bordir. Meni qanday engasan, hay Oxunim, Tanglayimda o‘lanning dog‘i bordir.
Yigit:	Yuqoridan men kelaman eshak haydab, Eshagimning yoniga tesha boylab.

	Boyning qizin olamanal changlatib, Keli tuyar qilarman taltanglatib.
Qiz:	Anov tog‘ning boshidan oldim qayroq, To‘qim solmay, to‘riqotgamindim yaydoq. Boyqiziga mol berib yalinguncha, To‘pping nichak kangga qo‘y, yurgin bo‘ydoq.
Yigit:	Oy oldida bir yulduz bor, oydan qoldi Qishlog‘ingiz qizlari yomon ekan, Torkovushni talashib to‘ydan qoldi.
Qiz:	Anoyidir deganda, anoyidir, Kovush-mahsi qizlarga binoyidir. Talashmasdan na qilsin bizning qizlar, Tanovori bedona, qaloyidir
<i>Yigitlar g‘olib bo‘lishadi. Qizlar kuyovga oyoq kiyimini qaytarib berishadi. Yigitlar tomonidan qo‘sinq kuyylanadi. Qizlar raqsga tushishadi.</i>	
<i>Qo‘sinq tugaganidan so‘ng kuyov va uning jo‘rasi kelin o‘tirgan xonaga kirishadi. U yerda kelin-kuyov bilan birgalikda udumlar o‘tkaziladi.</i>	
Kelinning ammasi:	Keling kuyov bola o‘tiring. Mana bu piyolada shirin suv. Birinchi bo‘lib o‘zingiz ichasiz, keyin, kelinbolaga ichirasiz.

	Hayotingiz ushbu shirin suvdek shirin bo‘lsin.
<i>Kuyov shirin suvdan ichib keyin kelinga ichiradi.</i>	
Kelinning xolasi: <i>Shunda kuyov bola kelinning qulog‘iga tilla zirak taqib qo‘yadi. Kelin-kuyov hamma turgan joyga kelishadi, kelinning tog‘asi kelinkuyovga oq fotiha beradi.</i> <i>Yigit-qizlar tomonidan “Yor-yor” qo‘shig‘i ijro etiladi. Barcha raqsga tushib kelin va kuyovni sahnadan olib chiqib ketishadi.</i>	Kuyov bola kelinga atagan narsangizni bering.

"KUYOV CHIQDI" MAROSIMI

“Kuyov chiqdi” marosimi – Qo‘qon shahridan boshqa hech bir viloyatda uchramaydigan, kelin va kuyovning nikoh to‘yidan uch kun o‘tib o‘tkaziluvchi marosimdir. Kuyovning qarindosh-urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilar, yoru-do‘stlar yig‘ilishib kelin tomonidan keladigan mehmonlarni kutib olishadi. Bu kichik to‘yni kelin bilan kuyovni yo‘qlash, yangi hayotga qadam qo‘yayotgan yoshlarni tabriklash desa ham bo‘ladi. Kelin tomonidan tashrif buyurgan qarindoshlarning barchalarining qo‘llarida kuyovga atab olib kelingan ko‘rмана, ya’ни sovg‘alar bo‘ladi. Yangalar hovliga chiroyli gilam solishadi. Kayvonim omot omonidan yor-yorlar kuylanadi. Kelinning amma-xolajonlari kuyovga atalgan sovg‘alarini berishadi. Bu marosimda asosan kelinkuyovningyaqin qarindosh-urug‘lari ishtirok etadilar.

Bu marosimni “Kuyov chiqdi” deb nomlanishi ham o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Nikoh to‘yidan so‘ng kelin-kuyov chimildiqqa kiritiladi. Uch kunlik chimildiq davrida kuyov ham kelin ham tashqariga chiqmaydilar, hech kimga ko‘rinmaydilar. Zarurat yuzasidan chiqilganda ham kuyov maxsus kuyov to‘nini boshiga yopib, yuzini ko‘rsatmay chiqib keladi. Aynan “Kuyov chiqdi” marosimi kuni kuyov yuzini olib kuyovjo‘rasi bilan birga tashqariga chiqadi. Yangalar tomonidan tayyorlangan maxsus joyda “kuyov salom” marosimi o‘tkaziladi. “Kuyov salom” marosimi o‘tkazilish bilan birga hovlining boshqa joyida kelin olib chiqiladi hamda “yuz ochdi” marosimi o‘tkaziladi. Kuyovdan so‘ng maxsus joyga kelin taklif etiladi hamda “Kelin salom” qildiriladi.

"KUYOV CHIQDI" MAROSIM SSENARIYSI

(Qo‘qon shahri misolida)

<p><i>Sahna milliy kashtalar, ko‘zalar, savatlar tumorlar, ko‘zmunchoqlar, ko‘ztumorlar, turli quroqlar, har xil atlas mato va rang-barang gullar bilan bezatilgan.</i></p> <p><i>Sahnaga kelinning qarindosh urug‘lari kirib kelishadi. Ularni kuyovning qarindosh- urug‘lari kutib olishadi.</i></p>	
<p>Ammasi-Nigoraxon</p>	<p>Qudajonlar kuyov o‘g‘limizni chaqiringlar, payg‘ambarlarimiz ham kuyovlarini ardoqlab e’zozlashgan, shuning uchun birinchi bo‘lib kuyovimizni ko‘rib olaylik.</p>
<p>- deb taklif bildiradilar.</p>	

<i>Mehmonxonalarning bir xonasidan kuyov jo‘ralari bilan o‘tirgan kuyov, yigit ammasi va bir do‘sti hamrohligida ta’zim bilan chiqib kelib, tayyorlab qo‘yilgan ko‘rpachadagi poyondoz ustiga chiqib turadi. Birinchi bo‘lib kelinni buvijonlari kuyov bilan so‘rashib sovg‘alarini topshiradilar.</i>	
Buvijon- To‘tigul	Assalomu alaykum bolajonim baxtli bo‘linglar. Mana shu kitoblarni o‘qib olim bo‘linglar, o‘zlariningdan ko‘payinglar.
<i>- deb duo qiladilar.</i>	
<i>Shundan so‘ng navbat bilan kelinni ammajonlari, xolajon kelin oyilari va qo‘ni-qo‘shni xolalari ko‘rmonalarni dasturxonga qo‘yib kuyovni o‘ng yelkasidan olib so‘rashib tabriklashadi. Bu paytda kayvoni onaxon doira chalib kuyovga atab Qo‘qoncha yor-yorlar aytib turadi. Hamma mehmonlar sovg‘alarini topshirib bo‘lgandan so‘ng ko‘rpachalarga o‘tirishib duo qilishadi.</i>	
Kayvonionaxon	Buvijon qani bir duo qiling.
Buvisi -To‘tigul	Ikki yosh qo‘shgani bilan qo‘sha qarisin. Serfarzand, serdavlat bo‘lishsin. Kelasi yillarga

	beshik to‘ylarida yig‘ilishlik nasib qilsin, omin.
Kayvoni ona-Yulduzzon	Kuyov o‘g‘limizni bir do‘srtlari yaxshi qo‘sinqchi ekan shu o‘g‘limni chaqirsak nima deysizlar. Bizlarga sho‘h qo‘sinqlardan aytib berishsa maza qilib o‘ynasak.
Kuyov jurasi: Iqboljon	Assalomu alaykum buvijon apajonlar to‘ylar qullug‘ bo‘lsin, bizga ham shunday chiroyli to‘ylar nasib qilsin.
	Men Qo‘qonimiz ayollariga sho‘x-sho‘x lapar qo‘sinqlardan aytib beramanda, mazza qilib xirom aylaysizlar, marhamat.
	<p style="text-align: center;">“Omon yor” popuri</p> <p style="text-align: center;">1</p> <p>Jon ukam Qo‘qonjonlik ukam, omon yor, Seni shirin so‘zingdan-ey, omon yor. Eshik oldi gulhovuzi, omon yor, Gul tergani kelganmiz, omon yor. Gulni bahona qilib, omon yor, Yor ko‘rgani kelganmiz, omon yor.</p> <p style="text-align: center;">2</p> <p>Omon yor aylasangchi, omon yor, Belingni boylasangchi, omon yor. Shunday go‘zal zamonda, omon yor, Ochilib o‘ynasangchi, omon yor.</p> <p style="text-align: center;">Naqorat</p> <p>Haydoda, voydoda, omon yor, Sochilib o‘ynasangchi, omon yor. Farg‘onaning qizlari, omon yor, Shaxlo ekan ko‘zlari, omon yor,</p>

	Nozlanib o‘ynaganda, omon yor, Oxu kabi ko‘zları, omon yor. Naqorat Haydoda, voy doda, omon yor, Ochilib o‘ynasangchi, omon yor.
Buvisi: To‘tigul	Ey o‘g‘lim yashang, ovozingizga ovoz qo‘shilsin, kelinglar bir duo qilaylikikki yosh baxtli bo‘lsin, kelasi yillarga beshik to‘ylarga yg‘ilishlik nasib qilsin, endi kuyov o‘g‘limizni do‘satlari davrasiga kuzataylik, mehmonjonlarni ham dasturxonga taklif qilaylik.
Momo duo qiladi. Barcha o‘yin-kulgi qilib sahnadan chiqib ketadilar.	

“BOYCHECHAK XABARI” UDUMI

O‘zbek xalqining madaniy merosida xalq ijod qilgan va katta ijtimoiy ahamiyatga ega turli bayramlar, ommaviy o‘yinlar, sayillar mavsumiy va kasbhunar marosimlari alohida o‘rin egallaydi. Bayramlar va sayil-marosimlar ijtimoiy va shaxsiy hayotning barcha tamonlarini qamrab oluvchi va kishilar o‘zaro munosabatlarining, etnik aloqalarining, xo‘jalik faoliyati-yu, umumiy tafovutlarini turli jihatlari va shakllarida namoyon bo‘luvchi urf-odatlar va an'analar, axloqiy prinsiplar, o‘ziga xos qonuniyatlarning tarixan shakllangan yig‘indisidir.

O‘rta Osiyoda dala gullariga bag‘ishlangan bayram, gul sayillari eng qadimgi hisoblanadi. Qadimda va o‘rta asrlarda o‘zbeklar va tojiklar orasida bayramlarni nishonlash keng tarqalgan. Bahorda o‘tkaziladigan Navro‘z sayli, sumalak sayli, ekin sayli, qizil gul sayli, lola sayli, qizg‘aldoq sayli, boychechak sayli, behi gul sayli, chuchmomo sayli, tut saylikabi ko‘plab xalq sayillari mavjud.

Xalqimizning azaliy va qadimiy bayramlari ichida bevosita tabiat va undagi o‘zgarishlar, yil fasllari hamda dehqonchilik an’analari bilan bog‘liq bo‘lgan sayillar muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda tabiatning uyg‘onishi tog‘ va qir-adirlarda turli gullarning ochilishi munosabati bilan o‘ziga xos feneologik kalendar tarzda turli sayllar o‘tkazilganligi ma’lum. Jumladan, Xorazm, Buxoro va Boysunda “Qizil gul – guli surx sayli”, Qo‘qon, Isfarava Toshkent atroflarida “Lola sayli” ba’zi tog‘li tumanlarda jumladan, Namangan viloyati Chust tumanida, Surxondaryo viloyati Denov tumanlarida “Sumbula sayli” yana boshqa joylarda “Boychechak” kabi bayramlar uyushtirilgan.

Qadim-qadim zamonlardan buyon mamlakatimiz hududida an’anaviy tarzda o‘tkazib kelingan gulsayllarining eng qadimiysi va keng tarqalgani “Boychechak sayli” yoki “Boychechak xabari” marosimi hisoblanadi.

“Boychechak sayli”, “Boychechak xabari” udumi – erta bahorda dalalarda boychechaklar ochilganda bolalar ana shu gullarni terib olib uyma-uy olib yurishlari udumidir.

Boychechak atamasi qadimgi turkiy tildagi “boy” muqaddas, davlat, boylik taqiqlangan, ya’ni ruhlar uchun qurbanlikka atalgan narsa, “chechak”, gul so‘zlarining birikuvidan hosil bo‘lgan.

Tarixan magik xarakterdagi “Boychechak sayli” yoki “Boychechak xabari” marosimi qadimdan Navro‘z oldi shodiyonalardan biri sifatida o‘tkazib kelingan. Ba’zi joylarda bolalar bir dasta boychechakni uzun xodaning uchiga bog‘lab olganlar va uni ko‘tarib qishloq aylanganlar. Boychechak chiqqanligi qish qirovli kunlar ortda qolib, ko‘klam yaqinlashganligini anglatadi. Shuning uchun keksa odamlar bolalar olib kelgan boychechakni yuz-ko‘zlariga surtib, undan yaqinlashayotgan bahor hidini to‘yanlar. Sog‘-omon navro‘zga yetib kelganliklariga shukrona qilib: “*Omonlik omonlik hech ko‘rmaylik yomonlik yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik! Og‘irligi yerga, yengilligim o‘zimga*” – deb duo qilganlar.

XX asrning boshida Toshkent shahrining Beshyog‘och dahasida boychechak ochilishi bolalar uchun bamisoli bayramga aylanib ketgan. Ular sakkiz-o‘n nafar bo‘lib, boychechak terishgan va ko‘chama-ko‘cha yurib, yoshi ulug‘ kishilar va ko‘pdan buyon betob bo‘lib yotgan mahalladoshlariga boychechak olib borishgan.

Toshkent viloyatining tog‘ oldi qishloqlarida esa “Boychechak sayli” o‘ziga xos tarzda o‘tkazilgan. Dasta-dasta boychechak terib olgan bolalar to‘pto‘p bo‘lishib qishloq aylanishgan. Uy egalari esa bolalar olib kelgan sadafdek oppoq boychechaklarni yuz-ko‘zlariga surtib, tavof qilganlar va “*Omonlik omonlik ilohim hech ko‘rmaylik yomonlik!*” —deb bolalarni alqaganlar. Har bir xonadon sohibi boychechak xabarini keltirgan bolakaylarni birorta tansiq shirinlik bilan siylashga harakat qilgan.

Ayrim qishloqlarda erta tongdanoq bolalar to‘da-to‘da bo‘lib boychechak izlab adirga chiqqanlar. Bolalardan qaysi biri boychechakni birinchi bo‘lib ko‘rsa, yugurib borib ilk ko‘klam chechagini yulib olgancha qishloq tomon chopib ketgan. Boshqa bolalar esa unga yetib olish uchun yugurganlar. Boychechakni ko‘tarib olgan bola tezlik bilan qishloqqa yetib kelib, eng keksa kishilar istiqomat qiladigan xonadonga kirib ularga boychechak xabarini yetkazgan. Uy egalari esa sovg‘a bilan siylaganlar. Boychechak ko‘targan bolalar har bir uy oldiga kelganida:

Boychechagim boylandi,

Qozon to‘la ayrondi,

Ayroningdan bermasang,

Qozon-tovog‘ing vayrondir.

Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,

Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak, - deb qo‘sishq aytganlar. Mabodo uy egasi biror yumush bilan band bo‘lib, hadeganda “boychechakchi”lar huzuriga chiqavermasa, bolalar:

Ovratmang, ovratmang,

Bolalarni jovratmang! -deyishgan.

Boychechak bilan bog‘liq xalq qarashlari g‘oyat qadimiy mifologik asoslarga ega bo‘lib, uni terish chog‘ida ijro etilgan qo‘shiqlar Navro‘z tantanalariga ko‘rk baxsh etgan.

“BOYCHECHAK XABARI” UDUMINING SAHNA KO‘RINISHI SSENARIY

<p><i>Sahna milliy kashtalar, ko‘zalar, savatlar tumorlar, ko‘zmunchoqlar, ko‘ztumorlar, turli quroqlar, har xil atlas mato va rang-barang gullar bilan bezatilgan. Sahnaga boychechak gullari qo‘yilgan.</i></p> <p><i>Yigitlar sahnaga “Boychechak chiqibdi” deb jar solib yugurib chiqishadi va “Boychechak xabari” aytimini aytishadi.</i></p>	
Yigitlar:	Eh-he-he-heyyy Boychechak chiqibdi, boychechak....
Abror:	Yigitlar mana bu boychechaklarni qaranglar
Kamoliddin:	“Boychechak xabari” aytimi Adirlar to‘la chechak, Biz keldi kucha-ucha. Boychechagim boychechak, Kutib oling hoy checha.
Abror:	Qattiq erdan qatalab chiqqan, boychechak, boychechak, Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak, boychechak.
Dilshod:	Boychechakni aytgan bilan

	<p>to‘yamizmi, Bugungining qa’dasini qo‘yamizmi</p>
Elmurod:	<p>Boychechagim billa, Boychechak, boychechak.</p>
Asatilla:	<p>Hamyon to‘la tilla, Boychechak, boychechak.</p>
Abror:	<p>O‘sha tillodan bersangiz, Boychechak, boychechak.</p>
Dilshod:	<p>O‘g‘lingiz bo‘lsin mulla, Boychechak, boychechak.</p>
<p><i>Boychechak xabari</i> <i>she’ridan so‘ng yigitlar tomonidan</i> <i>“Boychechak” qo‘shig‘i ijro etiladi.</i></p>	<p>“Boychechak” qo‘shig‘i <i>Boychechak boylangani,</i> <i>Dunyo kibir aylangani.</i> <i>Gurkirab ko‘rdiksani,,</i> <i>Gir aylanib shaylangani.</i></p> <p><i>N-t:</i></p> <p><i>Qo‘lga oloyin boychechak,</i> <i>Qayda ko‘royin boychechak.</i> <i>Darg‘animat dur bugun,</i> <i>Ko‘zga suroyin boychechak.</i></p> <p><i>N-t:</i></p> <p><i>Boychechak boylar bilan,</i> <i>Ikki yuzi oylar bilan,</i> <i>Axtarib ko‘rdiksani,</i></p>

	<i>Qir aylanib bog 'lar bilan.</i>
"Boychechak" qo 'shig 'idan so 'ng yigitlardan biri:	
Kamoliddin:	Yigitlar boychechak chiqqanligi xabarini qishloqdagilarga yetqazmaymizmi.
Yigitlar:	Yetqazamiz, yetqazamiz, kettik bo 'lmasa.
<i>Yigitlar bir xonadonga kelib eshikni taqillatishadi va "Boychechak xabari" she'rini aytishadi.</i>	
Yigitlar:	Boychechak aytib keldik eshigingizga, Xudoyim o 'g 'il bersin beshigingizga, Qattiq yerdan qatalab chiqqan, boychechak
<i>Yigitlar momoga boychechaklardan berishadi. "Boychechak xabari" she'ridan so 'ng onaxon boychechaklarni ko 'rib duo qiladi.</i>	

Onaxon:	Boychechak xabarchilaridan o'rgilay. Bolalarim shunday kunlarga yetkanimizga shukur. Omonlik, omonlik, illohim hech ko'rmaylik yomonlik. Kelasi yil shu kunlarga eson, omon etaylik
<i>Onaxon yigitlarni alqaydi. "Mana bu suyunchisiga" deb yigitlarga mayiz, yong'oqlardan beradi.</i>	
<i>Onaxonning duosidan so'ng bir yigit sahnadagi boychechaklarga qarab shunday deydi.</i>	
Kamoliddin:	Hoy yigitlar boychechaklarni qaranglar, boychechaklarni ko'rib baxri diling ochiladi-a..
Kamoliddin:	Yigitlar kelinglar, boychechak haqidagi qo'shiqlardan aytamiz.
Barcha ishtirokchilar:	Qani boshladik bo'lmasam.
Kamoliddin:	<p>"Boychechagim boylandi"</p> <p>qo'shig'i</p> <p>Boychechagim boylandi,</p> <p>Qozon to'la ayrondi.</p> <p>Ayroningdan bermasang,</p> <p>Qozon tovog'ing vayrondi.</p> <p>N-t:</p>
Barcha ishtirokchilar ijro etishadi:	<p>Qattiq yerdan qatalab chiqqan, boychechak.</p> <p>Yumshoq yerdan yumalab chiqqan,</p>

	<p>Boychechak.</p> <p>Boychechakni tutdilar,</p> <p>Tut yog‘ochga osdilar,</p> <p>Qilich bilan chopdilar,</p> <p>Baxmal bilan yopdilar.</p> <p>N-t:</p> <p>Qattiq yerdan qatalab chiqqan, boychechak,</p> <p>Yumshoq yerdan yumalab chiqqan, boychechak.</p>
	<p>Boychechagim bolasi,</p> <p>Qulog‘ida donasi,</p> <p>Donasini olay desam,</p> <p>Yugurib chiqdi onasi</p> <p>Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak,</p> <p>Yumshoq yerdan yumalab chiqqan boychechak.</p>
<p>“Boychechak xabari” <i>qo’shilg‘idan so’ng yigitlardan biri</i></p>	
Dilshod:	Yigitlar boychechak xabarini qolganlarga ham etqizaylik.
Barcha ishtirokchilar	Qani kettik bo‘lmasam
<i>Barcha ishtirokchilar sahnadan chiqib ketishadi.</i>	

“GULI SURX” SAYLI

“Guli surx” – qadimda Buxoro, Samarqand atrofidagi qishloqlarda o‘tkazilgan an’anaviy qizil gul sayli. Folklorshunos olim M.Jo‘rayev o‘zining

“O’zbek mavsumiy marosim folklori” kitobida Buxoroliklarning “Guli surx” sayli, Bahovuddin ziyoratgohida o’tkazilgan va bir oy davom etganligini qayd etib o’tgan. Samarqand yaqinidagi bir qishloqlarda ham “Guli surx” sayli haqidagi ma’lumotlar saqlanganligini aniqlangan etnograf, N.P.Labochevaning yozishicha, yosh yigit-qizlar to‘p-to‘p bo‘lishib, lola-qizg‘aldoqlar terish uchun shahar tashqarisiga chiqqanlar. Sayil markazi Cho‘pon ota ziyoratgohida bo‘lgan.

“Guli surx” tantanalarida, Buxoro viloyatining Shofirkon tumani qishloqlarida ham o’tkazilgan. Bu bayram dehqonlarning bahorgi ekish mavsumi bilan bog‘liq bo‘lib, hamal oyining avvalida boshlangan va bir oy tantana qilingan. Bu bayram atirgulga emas, balki, ko‘klamda ochiladigan qizil gulga bag‘ishlangan. Bahovuddin ziyoratgohi yaqinida o’tkazilib kelingan “Guli surx”, ya’ni “Guli surx” saylining nisbatan to‘la tavsifi buxorolik etnograf G.Qayumova tomonidan yozib olingan. Qizil gul sayli folklorining o‘ziga xos janrlaridan yana biri sayliga kelgan yigit-qizlarning o‘zaro aytishuvidir. “Guli surx” saylida yigit-qizlar “Gulni uzatish” o‘yininio‘ynashgan. Saylda yosh yigit-qizlar Bahovuddin Naqshbandiy ziyoratgohi atrofiga jam bo‘lishgan. Yigitlar qizlarga o‘z dil izhorini she’rga solib bayon etgan va gul bergen, o‘z navbatida qizlar ham she’rga solib o‘z javobini aytgan va sayl shu zayilda, shod-u xurramlikda davom etgan. Saylning aynan Naqshbandiy ziyoratgohida o’tkazilishining sababi Bahovuddin Naqshbandiy juda donishmand va hozirjavob pirlardan bo‘lgan, kimki ezgu niyat bilan uning qabrini ziyorat qilsa, ziyoratni qabul bo‘lib, niyati ijobat bo‘lgan. Saylda yosh yigit va qizlar bir-biriga dil izhori sifatida to‘rtlik shaklidagi she’rlar aytishgan, “qizil gul” shodiyonasiga atab qo‘shiqlar, laparlar aytishgan. Saylda bundan tashqari, “Olmani bargidakkina”, “O’ldirsa yor o‘ldirsin”, “Asiram ayladi dilbar”, “Dilbari yagonamiding” va boshqa shu kabi buxorocha qo‘shiqlar ham aytilgan. “Guli surx” sayli o‘ziga xos bo‘lib, har yil bahorda qizil gullar ochilgan paytda an’anaviy tarzda o’tkazilib kelingan. U o‘z tarkibiga xalq qo‘schiqchilik san’ati,

o‘yin folklori, raqs xalq teatri, hunarmandchiligi, urf-odat va marosimlarni qamrab olgan ma’naviy qadriyat namunasi deya ta’riflanadi.

Gul sayli yana dehqon va chorvadorlar uchun yangi mehnat mavsumining boshlanishi sifatida muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan. Bobo dehqonlar erta ko‘klamdan ona zaminga baraka urug‘larini qadasalar, cho‘ponlar o‘z suruvlarini sero‘t yaylovlar tomon haydaganlar. Ma’lumki, ajdodlarimizda kasb-kor, hunar otadan o‘g‘ilga meros qilib qoldirilgan. Bular esa avlodddan avlodga o‘tib, bizgacha yetib kelgan. An’anaga ko‘ra, qizil gul saylida tajribali cho‘ponlar o‘z shogirdi yoki ota kasbini puxta egallagan o‘g‘liga bobolaridan meros bo‘lib kelayotgan cho‘pon tayog‘ini topshirish marosimi ham o‘tkaziladi.

Qizil gul saylida ijro etilgan ko‘pgina qo‘shiqlarda odamlarning bahoriy sayli baxsh etgan ezgu to‘yg‘ular og‘ushidagi oniy holatlari qizil gul saylining o‘tkazilishi tartibi, uning udumlari, keksa onaxonlar-u, otaxonlarning bu saylda qatnashib, ko‘klamga eson-omon yetib kelganliklariga shukrona aytishlari tarannum etilgan. Qizil gul saylining o‘tkazish tartibi, uning udum o‘yinlari, sayl bilan bog‘liq folklor asarlari xalqimizning ma’naviy qadriyatlari tizimida muhim o‘rin tutgan. Tabiatning ko‘klamgi uyg‘onishini poyetik idrok etish o‘lib-tiriluvchi tabiat kultlariga sig‘inish bilan aloqador mifologik tasavvurlar asosida kelib chiqqan. Bu sayl XX asrlarga qadar an’anaviy tarzda o‘tkazilib kelingan. Qizil gul saylining poyetik folklori tabiatning husunkor go‘zalligini ulug‘lash bilan bir qatorda, ijodkor xalqimizning ruhiy kechinmalarini ham badiiy ifoda etgan. Bu qo‘shiqlar tabiatni sevishga, insoniy mehr-oqibatni qadrlashga, ota-bobo an’analariga sodiq qolishga, undagan. Shuning uchun ham qizil gul sayli ritual sayli marosimlaridan biri sifatida an’anaviy tarzda o‘tkazilib, bu sayl bilan bog‘liq folklor asarlari asrlar osha sayqallanib, takomillashib kelavergan.

“GULI SURX” SAYLI SSENARIYSI

<i>Erta bahor, ko‘m-ko‘k dala, ochiq havo. Sahnaning o‘rtasida katta</i>	
--	--

<i>bir daraxt bor. Sahna gullar bilan bezatilgan. Sahnaga yigitlar hangoma qilib kirib keladi, sahna ortidan qizlar kulgusini to'satdan eshitiladi va qizlarni ko'rib qoladi. Qizlar ham sahnaga sekin kirib keladi. Shundan so'ng yigitlar qizlarni o'z davrasiga taklif qiladi.</i>	
Iqbol:	Hoy qizlar, xormanglar endi. Chetda turmasdan kelinglar, bizning davramizga qo'shilinglar.
<i>Qizlar bir-biri bilan muhokama qilib yigitlar davrasiga qo'shilishga qaror qilishadi.</i>	
Zarnigor:	Sizlar taklif qilsangiz, biz yo'q desak uyat bo'lar axir, akajon!
Jamoa:	<p style="text-align: center;">"Avvalida ko'rmasamchi!"</p> <p style="text-align: center;">qo'shiq</p> <p style="text-align: center;">Avvalida ko'rmasamchi yo'q ekan ko'rish dubora,</p> <p style="text-align: center;">O'ti ohim uchqunidir dema ko'kdagi sitora.</p> <p style="text-align: center;">Sifati malohatingda yozarimda kuysa qog'oz,</p> <p style="text-align: center;">Ne ajab firoq o'tidin nafasim urib sharora.</p> <p style="text-align: center;">G'alati boqishlaringla gap urishlaring nigoro,</p> <p style="text-align: center;">Biri bersa jon, birisi jigarimni</p>

	qiladi pora.
To‘tigul:	Voy tabiatning go‘zalligini, odamlarning bahru dilini ochadiya!
Shahnoza:	Voy qip-qizil chiroyli gullarnichi, hidlab to‘ymaysan kishi.
Shuhrat:	Yigitar, qizlar. Qizil gul sayli bahona bir diyordorlashgani chiqibmizda.
<i>Hamma bирgalikda Shuhratning gapini tasdiqlaydi.</i>	
Shuhrat:	Kelnglar manashu ochilib turgan chiroyli, gullarni terib, ro‘paramizdagি daraxtga ilib, daraxtimizni bezatib olamiz.
<i>Shunda hamma daraxtni gullar bilan bezatishga kirishadi.</i>	
Shuhrat:	Daraxtimizning gullar bilan bezatilish sababiga qiziqib ko‘rganmisizlar?
<i>Hamma yo‘q deb javob qaytaradi.</i>	
Shuhrat:	Buning sababini men sizlarga bir rivoyat orqali tushuntirib beraman. Qadim o‘tgan zamonda Buxoroi sharifda, allomaiy pirlar makonida Xo‘ja taqrovut degan avliyo bobomiz o‘tgan ekan. Xo‘ja Taqrovut yetti og‘a inining bir-biri bilan bo‘lib. Kunlarning birida ularning qishlog‘iga

	dushman hujum qilibdi. Jangda dushmanning qo‘li baland kelib qishloqning qo‘lini ko‘kka sovurib, Xo‘ja Taqrovutning qoni tushgan yerlardan qip-qizil lolalar unib chiqibdi. Shundan bo‘lsa, kerak o‘tmishda ajdodlarimiz lolani Xo‘ja Taqrovut avliyo bobomizning qonidan paydo bo‘lgan, deb taxmin qilishgan. Biz ana shu daraxt novdalarini lolalar va gullar bilan bezatganimizning sababi Xo‘ja Taqrovut avliyo bobomizning johillar tomonidan bo‘lib, tashlangan qayta tiklashning ramziy amalidir. Bu yer, buyuk alloma Bahovuddin Naqshbandiy avliyo bobomizning ziyoratgohidir. Kimki bu yerni yaxshi niyatlar bilan ziyorat qilsa, niyatlari ushalgan. Keyin bu daraxtga qizlar yaxshi niyatlar ila qiyiqchalar ham bog‘lashgan.
Shohbek:	Rahmat do‘stim, sizning rivoyatingiz orqali buning sababini ham bilib oldik. Ana endi “qizil gul” saylini boshlaymizmi?
<i>Hamma birgalikda boshlaymiz deb javob beradi.</i>	
Asliddin:	O‘rtaga gul tashladik, Gul saylini boshladik!

Zarnigor:	Keldilar bog‘lar osha, Bo‘ldi ajib tomosha, Buxoroda gul sayli, O‘z nomiga yarasha
Shuhrat:	Ey, aziz yigit-qizlar, Gapimni tinglang sizlar, O‘ynaylik gul saylida, Bir xirom aylangizlar!
Jamoa:	<p style="text-align: center;">“Ey sanamiy...”</p> <p style="text-align: center;">N.T.</p> <p> Ey sanamiy, pariliqo jilvagariy jahonmusan?</p> <p> Obi-hayot lablari dilbari xush zabonumsan?</p> <p> Oynai jamolinga onchaki intizor edim,</p> <p> Bir kuni demading menga: “Oshiqi notavonmisan?”</p> <p style="text-align: center;">N.T.</p> <p> Ey sanamiy, pariliqo jilvagariy jahonmusan?</p> <p> Obi-hayot lablari dilbari xush zabonumsan?</p> <p> Har kishi senga bir boqar, suv bo‘libon erib oqar,</p> <p> Yuzlri olma, dil yoqar, g‘unchai arg‘uvonimsan?</p> <p style="text-align: center;">N.T.</p> <p> Ey sanamiy, pariliqo jilvagariy</p>

	<p>jahonmusan?</p> <p>Obi-hayot lablari dilbari xush zabonumsan?</p> <p>Vaslingga yuz imo qilib, va'dai doimo qilib,</p> <p>Ohirida jafo qilib, kuydirguvchi iymonmusan?</p> <p>N.T.</p> <p>Ey sanamiy, pariliqo jilvagariy jahonmusan?</p> <p>Obi-hayot lablari dilbari xush zabonumsan?</p>
Shuhrat:	Yigitlar.
Yigitlar:	Labbay
Shuhrat:	Hammamizning qo'limizda chiroyli qizil gullar bor, kelinglar har birimiz o'zimizga yoqqan qizga dil izhori sifatida she'r aytib, shu gullarni uzatsak nima deysizlar?
Yigitlar:	Juda yaxshi, juda yaxshi!
Shuhrat:	Qani yigitlar unda kim boshlaydi
Asliddin:	Mana men boshlayman!
Yigitlar:	Qani marhamat!
Asliddin:	<p>Qizil gulni gul desam,</p> <p>Qizil gulga o'hshamas.</p> <p>Go'zellarni bir desam,</p> <p>Go'zalimga o'xshamas.</p>
<i>She'rni aytib, Asliddin qizlar</i>	

<i>orasidan Shaxnozaga dil izhori sifatida gul beradi. Shaxnoza gulni olgach, unga she'r aytib javob qaytaradi.</i>	
Shaxnoza:	O'zgalardan ustun qo'yib, So'zlayvermang akajon. Gullar tutib uyaltirib, Bo'zlayvermang akajon.
Shoxbek:	Yigitlar maylimi men ham o'zimni sinab ko'rsam.
<i>Yigitlar "mayli, mayli" deb javob qaytaradi.</i>	
Shoxbek:	Qo'lingdagi qizil guling bo'loyin, Bog'ingdagi sho'x bulbuling bo'loyin, Orzu armon bilan senga yetishsam, Shunda o'zim jon-u diling bo'loyin.
<i>Shu tarzda Shohbek Shoxsanamga gul beradi. O'z navbatida Shoxsanam ham gulni olgach, to'rtlik bilan javob qaytaradi.</i>	
Shoxsanam:	Qo'limdag'i qizil gulim bo'ling siz, Bog'imdag'i sho'x bulbulim bo'ling siz So'zingizda vafo bo'lsa ey yigit,

	Bir umrlik vafodorim bo‘ling siz.
Shuhrat:	Iqbol, sen nimaga jim turibsan. Yoki guling qo‘lingda qolib ketishidan qo‘rqayapsanmi?
Iqbol:	Yo‘g‘ye nimaga qo‘rqr ekanman, mana hozirda:
	Guldan go‘zal suluv qizga gul tutarman, She’rlar aytib oy qiziga dil tutarman. Sizdek go‘zal qo‘llarimdan gul olsa deb, Ishq shahrida malikasiz bosh egarman.
<i>Shunday deya Iqbol To‘tigulga gul uzatadi. Lekin To‘tigul gulni olmasdan shunday javob beradi:</i>	
To‘tigul:	Ishq yo‘lida har narsaga qodirdirsiz, Gulingizni ololmayman yod ko‘zlar ko‘p. Uzur endi akajonim, kechirasiz, Paxlavondek yorim bordir demasman xo‘p .
<i>Xafsalasi pir bo‘lgan Iqbol sekin xijolat chekib ortga qaytadi.</i>	
Shuhrat:	Do‘stlar men ham o‘zimni sinab ko‘rsam qarshiliklar yo‘qmi?

Asliddin:	Yo‘q albatta qani marhamat.
Shuhrat:	Qizil gul shona-shona, Qo‘limda gul nishona. Qizil gul bergen qizning, Ishqida men devona.
<i>Shuhrat Zarnigorga dil izhori sifatida she‘r aytib gul beradi. Zarnigor ham she‘r ila javob qaytaradi va rozilik alomati sifatida o‘z qo‘li bilan tikkan ro‘molchasini hadiya qiladi.</i>	
Zarnigor:	Gul shoxida bulbulni Kunda ko‘rgim keladi. O‘sim sevgan yigitni Tunda ko‘rgim kelodi
Jamoa:	Ey nasib etsa yaqinda to‘y ekanda, tabriklaymiz!
Sardor:	Ey men ham tabriklayman jo‘ra. Sizni zo‘r sozanda deb bilamiz, qani bir bo‘lajak kelin bolani sehrli sozlarining ostida raqsga taklif qilmaysizmi?
To‘tigul:	Hoy yigitlar.
Yigitlar:	Labbay
Qizlar:	Chiroyli gullar ularashib, she‘lar aytdingiz, katta rahmat! Ana endi bir qo‘shiq ham kuylab beringlar!
Shuhrat:	Qo‘shiq sizdan aylansinqizlarjon! Faqat biz qo‘shiq

	aytsak siz raqsga tushishingiz kerak bo‘ladi.
Qizlar:	Xo‘p bo‘ladi, akajon!
<i>Qo‘sish vaqtida qizlar chiroyli raqslarga tushadilar.</i>	
Zarnigor:	Qizlar, ana mushoiralikni ham o‘tkazib, qo‘shiqlar aytdik, saylda mazza qilib o‘ynab kuldik. Keling endi manashu qo‘limizdagi, ro‘molcha-yu qiyiqchalarni ro‘paramizdagi daraxtga ilib, yaxshi niyatlar qilaylik va yigitlarimiz qarshi bo‘lmasalar bugungi “qizil gul” saylimizni ham yakun yasaylik.
<i>Hamma Zarnigorning so‘zlarini birgalikda ma’qullaydi. Qizlar “baxtli bo‘laylik...”, “menga ham vafoli yor uchrasin...”, “Yurtimiz tinch bo‘lsin...”, “Olloh bizni o‘z panohidan asrasin...” kabi yaxshi niyatlar ila daraxtga qiyiqcha va ro‘molchalarni bog‘lashadi.</i>	
Yigitlar:	N.T. Bog‘ sahnida qizil gul Qoshida sayrar bulbul, Latofat bog‘ida tanho ular hamro o‘lur hatto, Hamma go‘zalligiga shaydo, Qalbda ishq etar paydo.

<i>Qo'shiqni kuylab, yigitlar va qizlar sahnadan sekin chiqib ketishadi.</i>	

“SUST XOTIN” MAROSIMI

“**Sust xotin**” – yil qurg‘oq kelganda o‘tkaziladigan yomg‘ir chaqirish marosimi.

Yomg‘ir chaqirish marosimi odatda bahor faslida o‘tkazilgan. Olimlarning ta’kidlashlaricha, bu marosimlar Suxondaryo va Qashqadaryo viloyatining hududlarida ommaviy tus olgan. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, hatto yomg‘ir chaqirish odatimiz “**Avesto**”da madh etilgan, sharaflangan, osmon suvlari tangrisi Tishitriyaning xalq o‘rtasidagi boshqacha nomlanishidan iborat ekan.

Dehqonchilik rivojlangan mahalliy joylarda yomg‘irning o‘z vaqtida yog‘ishi juda muhim ahamiyatga egadir. Qurg‘oqchilik dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan aholiga katta kulfat keltirgan. Shuning uchun odamlar “**Sust xotin**” mavsumiy odatini o‘ylab topishgan. Qizig‘I shundaki, bu hududlarda istiqomat qiladigan yurtdoshlarimiz “**Sust xotin**” marosimi o‘tkazilgandan so‘ng haftalab yomg‘ir yoqqani haqida o‘nlab misollar keltirishadi. Shuning uchun ham xalq bunday marosimlarni o‘tkazishga puxta tayorgarlik ko‘rishgan, har bir amallarga rioya qilishni odat tusiga kiritgan.

Suxondaryo va Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi “**Sust xotin**” marosimini o‘tkazayotganda dehqonlar omochlarining uchini teppaga qaratib qo‘yib, bir toshbaqani omochning tig‘iga oyog‘idan osib qo‘yishgan. Ayollar bo‘lsa uyma-uy yurib, “**Sust xotin**” qo‘srig‘ini aytganlar. Uy egasi bug‘doy chiqarib bersa, xotinlar “*Allohu akbar! Guldurmomo, Jaldirmomo kelsin! Yomg‘ir yog‘sin, hammamiz seroblikka chiqaylik!*” deb duoqilishganlar.

Yetti uydan yig‘ilgan bug‘doylarni yorg‘uchqodan chiqarib, ovqat pishiradi. Yetti oila a’zolari bir to‘planib, bu taomni bиргалашиb танавул qilishadi. Shundan keyin “Sust xotin” ni taom pishirilgan uyning tomiga chiqarib tikka qadab qo‘yadilar. Mirishkor qishlog‘ida yomg‘ir yog‘maganda toshbaqani ham osib qo‘yadilar. Shunday qilinsa, yomg‘ir yog‘adi deb o‘yaydilar.

“Sust xotin” marosimi Samarqand viloyati Bo‘lung‘ur tumanida biroz boshqacharoq “Sutxotin” deb nomlangan va o‘tkazilgan. Folklorshunos T.Ochilov yozib olgan ma’lumotlarga qaraganda va avvalgi rivoyatlarga qulog tutsak qurg‘oqchilik bo‘lsa, odamlar bir-birlarini suvga pishgan. Qayerda toshbaqa ko‘rsalar, ag‘darib tashlab ketaverganlar. Bunda “Yer sharining shakli xuddi toshbaqaning kosasidek” deb, o‘ylashgan va “Toshbaqaning ostki qismi huddi ekin qilgan erlar singari tekis, uni teskari qilsalar Olloh toshbaqaning ostki qismini ko‘radi va ekinli yerlar ham borligini ko‘rib, rahmi kelib suv yuboradi” deb, hisoblashgan.

Yomg‘ir yog‘may, la’lmidagi bug‘doy o‘smay qolsa, oilasida to‘ng‘ich bola bo‘lib tug‘ilgan bir ayol kurakka xodani ko‘ndalang qilib bog‘lab qo‘l qiladi. Hosil bo‘lgan chorcho‘pga kiyim kiygizib, qo‘llariga toshbaqa osib qo‘yadilar. Ayollardan biri anashu xodani ko‘tarib uyma-uy yuradi, uning yoniga borayotgan xotinlar har uyga borganda:

Sutxotin, sutxotin,

Havolar jovsin, sutxotin,

Bug‘doylar bo‘lsin, sutxotin,

O‘ralar to‘lsin, sutxotin.

-deb qo‘sinq aytib turishadi. Uy egasi esa biror paqir suv olib chiqib haligi toshbaqaning ustidan quyadi. Keyin biror egulik bilan bug‘doy chiqarib beradi. Yig‘ilgan masalliqlardan ovqat qilib tarqatilsa, yomg‘ir yog‘adi deyishgan.

Paxtachi tumaning Qo‘shabot qishlog‘ida qurg‘oqchilikni bartaraf etish uchun o‘tkazilgan “**So‘z xotin**” marosimida bitta toshbaqani tutib, ip bilan

tayoq uchiga bog‘laganlar va bitta kampirga eski-tuski kiyim kiydirishgan. Kampir toshbaqa bog‘langan tayoqni ko‘tarib, uyma-uy yurgan. U bilan birga borayotgan ayollar esa, yo‘l-yo‘lakay toshbaqaning ustidan suv quyib turib:

Yomg‘ir yog‘sin suz xotin,
O‘ralar to‘lsin, suz xotin.
Oq-oqqina buzoqlar,
Oqib o‘tsin, suzxotin.
Qari qari momolar,
Javrab o‘tsin, suzxotin.
-deb qo‘shiq aytganlar.

Samarqand viloyatining Paxtachi tumanidagi Daraytut qishlog‘ida qayt qilinishicha, ilgarilari qurg‘oqchilik bo‘lsa, “*yer yomg‘irga to ‘lmaydi, bandalar orasida kasalchilik ko ‘paymasin, vazminlik bo‘lsin*” deb “Selxotin” marosimini o‘tkazganlar. Buning uchun uchta momo boshiga g‘alvir yopinib olgancha, ko‘chama-kocha sadaqa so‘rab, shunday qo‘shiq aytishgan:

Sel xotin, seldir xotin,
Havolarni yog‘dir xotin,
Yerlarimiz qurg‘oq bo‘ldi,
Bandalar suvloq bo‘ldi.

Yomg‘ir chaqirish marosimining bu ko‘rinishi Navoiy viloyatining Arabsaroy qishlog‘ida ham o‘tkazilgan. Yil qurg‘oq kelgan vaqtida “Selxotin” marosimi qilingan. Buning uchun qishloqning sochi oqarib ketgan eng keksa kampirini hovliga olib chiqib, ustiga oq po‘stak yopib o‘tirg‘izib qo‘yishgan. So‘ngra birchelak suv olib kelib kampirning ustidan quyishgan va xo‘l bo‘lgan kampirni eshakka mindirib qishloq ko‘chalarini aylantirganlar va:

Selxotin, selxotin,
Suv keltirsin selxotin.

-deb qo'shiq aytganlar.

Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanidagi Qirg'iz saroy qishlog'ida yomg'ir chaqirish marosimi "**To'zxotin**" deyiladi. Etnograf olim F.Rahmonov tomonidan yozib olingan ma'lumotlarga ko'ra, oilaning to'ng'ich o'g'li ustiga chopon yoki eski ko'rpa cha yopinib olib, bir necha yigitlar hamrohligida uyma-uy yurgan. Har bir hovliga kirayotganda yigitlardan bittasi baland ovozda quyidagi qo'shiqni aytgan:

To'zxotin-a, to'zxotin,

Osmoñ chokin buzxotin,

Havolarn ijovdira,

Ariq bo'lsa so'zxotin.

To'zxotin-a, to'zxotin,

Dala dashtni kezxotin,

Xirmon o'ysak to'zxotin,

Qo'chqor so'ysak to'zxotin,

Seni duo qilamiz,

Yomg'ir yog'dir, to'zxotin.

Shu qo'shiq aytligach, uy egalari to'ng'ich bolani ustidan suv quyib, xayr-sadaqa chiqarib bergen.

Til shunos olim N.Mirzayevning aytishlaricha, G'uzor tumani qishloqlarida bahor fasli qurg'oq kelib, yog'ingarchilik kam bo'lgan vaqtarda "yog'in garchilik serob bo'lsin" degan maqsadda ustidan suv quyib, qoshloq kochalari va hovlilarda olib yuriladigan ayol yoki ayol kiyimidagi qo'g'irchoq "**To'zxotin**" deyiladi.

Yomg'ir chaqirish marosimining Qashqadaryo viloyatida qayd etilgan ko'rinishlaridan yana biri "**Chaylaqozoq**" deb atalgan bo'lib, unda quyidagi qo'shiq ijro etilgan:

Chayla qozoq yig'laydi,

Nonu-patir tilaydi.

Ko'kkina ko'zi ma'raydi,
Ko'kkina o'tni tilaydi.

Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Jig'achi qishlog'ida yomg'ir chaqirish marosimi "**Chalaxotin**" deb ataladi. Bu marosim nomini bildiruvchi "chalaxotin" atamasidagi "*chala*" so'zi "*jala*" leksemasi bilan etimologik jihatdan o'zakdoshdir. Shunga ko'ra "Chalaxotin" so'zi "Jalaxotin" ma'nosin ianglatadi. Bu marosimni o'tkazish uchun ayollar xodaning uchiga kapgir bog'lab bosh qiladilar va uning ostiga ko'ndalang tayoq bog'lab qo'l yasaydilar. Shu xodaga ko'ylak kiygiziladi va hosil bo'lgan qo'g'irchoqni ko'tarib yurib, quyidagi qo'shiqni kuylashadi:

Qivladan bir bulut kelar yog'aman deb,
Momolar titrashadi o'lanan deb,
Yog'sa-yog'sin arpa bug'doy ustina,
Uraversin sellar.
Onamning to'ng'ichiman,
Qozonning qirg'ichiman,
Yog'sa-yog'sin arpa bug'doy ustina,
Uraversin sellar.
Aylanadi chalaxotin,
O'rgiladi chalaxotin.
Havo yog'sa – obi rahmat,
Uraversin sellar.

Yuqoridagi misoldan ma'lum bo'ldiki, qo'shiqning bosh maqsadi yomg'ir yog'dirish bo'lgan. Shunday qilib "Sustxotin", "Sutxotin", "So'zxotin", "Selxotin", "To'zxotin", "Chaylaqozoq", "Chalaxotin" marosimlari Ollohdan yomg'ir orqali dehqonchilik ekinlarini o'stirish, mo'lko'lchilikni ta'minlash asosid aqurilgan.

“SUST XOTIN” MAROSIMI SSENARIYSI.

<p><i>Sahna ekinzorga xos bezattirgan. Sahnada bir dehqon (Abduraim ota) qo‘lida ketmoni bilan yerni chopadi va biroz charchagandek bo‘lib, qirg‘oqchilikdan bug‘doylar o‘sishdan to‘xtaganini ko‘rib, osmonga tiqilgancha xo‘rsinib qoyadi. Shu paytda sahna chetidan ikki-uchta dehqonlar kirib kelishadi va yo‘l yo‘lakay bir-birlari bilan gaplashib kelishadi:</i></p>	
Qodirjon:	Assalomu alaykum, Abduraim ota!
Abduraim ota:	Vaaleykum assalom, bolam.
Qodirjon:	Xormang, Abduraim ota! Ha, bu dala ishlari bilan charchamayabsizmi?
Abduraim ota:	Rahmat Qodirjon, salomat bo‘l bolam,
Qodirjon:	Ha, bu dala ishlari bilan charchamayabsizmi ota, nazarimda bu yil bahor fasli qurg‘oq keldi shekilli-a...?
Abduraim ota:	Haaa, nimasini aytasan bolam... Ekinzorimizda ham ekinlar o‘smay qoldi. Yerlar qatqaloq bo‘lib qolyabdi. O‘zi avvallari har 10-

	15 yilda bahor fasli shunaqa qurg‘oq bo‘lardi. Bunday hollarda ota bobolarimiz turli yomg‘ir chaqirish marosimlari o‘tkazishgan. Men ham ular kabi “Sust xotin” marosimini o‘tkazaylik, deb o‘ylab turgan edim.
Qodirjon:	Men ham shuni maslahati bilan kelgan edim
Ikrom:	Ota, “Sust xotin” marosimini o‘tkazaylik dediz-ku, ammo u nima ekanini tushuntirmadingiz, bu qanday marosim bo‘ldi ota?
Qodirjon:	Ha bu marosimni mag‘zini men ham uncha tushunmayman, shuning uchun Abduraim otani oldiga keldik-da.
Abduraim ota:	Ha bolaning qiziqqani yaxshi Qodirjon bizdan keyin shular ota bobolarimizning kasb-korlarini davom ettirishadi. Shuning uchun bu kabi marosimlarni bilganlari yaxshi. Bilasanmi bolam, “Sust xotin” marosimini yil qurg‘oq kelganda o‘tkaziladigan yomg‘ir chaqirish marosimi bo‘lib, dehqonlar omochlarining uchini teppaga qaratib qo‘yib, bir toshbaqani omochning tagiga oyog‘idan osib qo‘yishgan, yoki toshbaqaning yerga teskari qilib qo‘yishgan. Ba’zida yog‘ochga ayollar kiyimini kiydirib, yettita uyga kirishib, “Sust xotin” qo‘srig‘ini aytib yurishgan. Bunda uy egalari un, bug‘doy xullas birorta atagan narsalarini olib chiqib beradilar. Yetti uydan yig‘ilgan

	mahsulotlardan ovqat pishiriladi. Yetti oila a'zolari bir to'planib, bu taomni bиргалашиб tanavvul qilishadi.
Ikrom:	Ota, toshbaqani teskari qilishadi dedingizmi, nega unaqa qilishgan?
Abduraim ota:	Uni rivoyati bor bolam qadimda ajdodlarimiz “yer sharining shakli huddi toshbaqaning kosasidek” deb o‘ylashgan va toshbaqaning ostki qismi xuddi ekin ekilgan yerlar singari tekis, uni teskari qilsalar, Olloh toshbaqaning ostki qismini ko‘radi va ekinli yerlar ham borligini yodiga tushib, rahmi kelib suv yuboradi” deb hisoblashgan. Qizig‘i shundaki, “Sust xotin” marosimi o‘tkazilgandan so‘ng haftalab yomg‘ir yoqqanini ko‘rganmiz.
Qodirjon:	Bobojon, unda ushbu marosimni o‘tkaza qolaylik.
Abduraim ota:	Unda Qodirjon qani dehqonlarni chaqir. Qishloqqa borib marosimni o‘tkazaylik
Qodirjon:	Hoy Iqboljon, Abrorjon qani kelinglar yomg‘ir chaqirish marosimini qishloqda o‘tkazgani ketyabmiz.
	<p>Sust hotin, suzma xotin, Ko‘lankasi maydon xotin.</p> <p>Yomg‘ir yog‘dir, ho‘l bo‘lsin, Yeru-jaxon ko‘l bo‘lsin.</p> <p>Maysalar qulqoq yozsin, Sutu-qatiq mo‘l bo‘lsin.</p> <p>N.T</p>

	<p>Yomg‘ir yog‘dir ko‘l bo‘lsin, Qurg‘oqchilik yo‘q bo‘lsin. Arpa bug‘doy bosh tortsin, Kayvoniyalar osh tortsin.</p> <p>N.T</p> <p>Yomg‘ir yog‘dir ho‘l bo‘laylik, Biz ham sizga jo‘r bo‘laylik. Ko‘klamda o‘ynab-kulib, Ham sho‘xu ham zo‘r bo‘laylik.</p> <p>N.T</p>
<p><i>Baland ovozda hammani chaqiradi. Dehqonlar va ularning ayollarini, momolar xullas qishloq odamlari dalaga (sahnaga) kirib kelishadi birini qo‘lida yog‘och birida esa ayollar kiyimi. Barcha dehqonlar sahnaning o‘rtasiga kelishib “Sust xotin” deb aytuvchi bu qo‘g‘irchoqning egniga ayollar ko‘ylagini kiygizadilar va boshiga lachak yoki ro‘mol o‘raydilar. Dehqonlardan yoki momolardan biri ana shu qo‘g‘irchoqni ko‘tarib yetti uyga boradi. Va yo‘l-yo‘lakay “Sust xotin” qo‘shig‘ini aytishadi. Qo‘shiq</i></p>	

<i>aytilayotgan vaqtida uy egalari qo'shiq aytayotganlariga bug'doylar, donlar berishadi.</i>	
<i>Shu paytda avval momaqaldiroq ovozi, so'ng yomg'ir ovozi eshitiladi. Hamma ko'tarinki kayfiyatda yuzlarida xursandchilik ifodasi aks ettiriladi. Hamma baland ovozda, 3 marta yomg'ir, yomg'ir, yomg'ir deyishadi. Va qo'shiqning davomini yana kuylashadi.</i>	
Abduraim ota:	Mana yomg'ir chaqishi marosimini ham o'tkazib oldik, yomg'ir ham yog'di, endi yetti uydan yig'ilgan mahsulotlarni, hammaga teng bo'lib tarqatamiz, qani, olinglar!
<i>Xonadonlardan yig'ilgan narsalarni Abduraim ota hammaga bap-baravar ulashadi.</i>	
Ikrom:	Jo'ralar, mana yomg'ir ham yog'di. Xursandchilikni davom ettirib bir o'yin kulgu qilmaymizmi...?
Hamma:	Ha albatta, qani o'zingizdan bir qo'shiq eshitaylik unda!
Jo'rajon qo'shig'i:	Boysun tog'da chashma bor, oh jo'rajon o'ynaylik, Chashma bo'yida bir yor, kel jo'rajon

	<p>o‘ynaylik.</p> <p>Suv bo‘yida o‘ltirib aytadi, yalla yor-yor,</p> <p>Oh jo‘rajon o‘ynaylik, kel jo‘rajon o‘ynaylik.</p> <p>Boysun tog‘ning shamoli, yilpir kimning ro‘moli,</p> <p>Ro‘moliga yarashgan oydek husni jamoli.</p> <p>Oh jo‘rajon o‘ynaylik, kel jo‘rajon o‘ynaylik.</p> <p>Boysun tog‘ning toshini ko‘rmayin ko‘z yoshini,</p> <p>Tillolarga alishmam Boysunning bir toshini.</p> <p>Oh jo‘rajon o‘ynaylik kel jo‘rajon o‘ynaylik.</p>
Abduraim ota:	Eeee raxmat. Ota bobolarimiz bugungi ishni ertaga qo‘yma deyishgan. Qani bo‘lmasa dalalarimizdagи bug‘doylarni tagini kun botmasdan yumshatib olaylik. Hamma dalaga.
Hamma:	Rost aytasiz ota, qani bo‘lmasa barcha ishga.
<i>Ishtirokchilar qo‘llariga ketmonlarini olib “Jo‘rajon” qo‘sиг‘ини hirgoyi qilib sahnadan chiqib ketadilar.</i>	

“SUMALAK SAYLI” UDUMLARI

Sumalak qadimdan ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, 3000 ming yildan beri bahorni kutib olish, dehqon chilik ishlarining boshlanishi arafasida “Navro‘z”da tayyorlanib kelinadi. Yigirmanchi asrning to‘qsoninchi yillaridan boshlab,

sumalak pishirish “Navro‘z” bayramida, ayniqsa, ayollar o‘rtasida katta tantana bilan o‘tadi.

Ajdodlarimiz asrlar bo‘yi “Navro‘z” oqshomi katta-katta doshqozonlarda sumalaklar qaynatib, kelayotgan yangi yil barakali, qutli va serhosil bo‘lishiga umid bog‘laganlar. Sumalak pishirayotgan onaxonlarimiz qadimiy xalq qo‘schiqlarini, bayt g‘azallarn iaytib, bayram fayziga fayz qo‘sishgan.

Xalqimiz orasida saqlangan an'anaga ko‘ra, sumalak Bibi Fotimaning oshi deb qaralganligi uchun, uni ilk da’fa jimgilog‘I bilan tatib ko‘rsa, savob bo‘ladi deydilar.

Shu bois, “Navro‘z” kunlarida dasturxonga sumalak tortilganda, ko‘klam ne’matini birinchi marta tatib ko‘rayotgan piru badavlat otaxonlarimiz-u tabarruk onajonlarimiz “Hasan-Husanlarning taomi pishibdi, yangilik. Ilohim, hech ko‘rmaylik yomonlik niyatimiz omonlik. Ilohim yanagi yil, yanagi oylarga o‘ynab-kulib, boshimiz eson, bag‘rimiz butunbo‘lib etaylik!” deyishib jimjiloqlari bilan tatib ko‘radilar.

Ayrim joylarda sumalakning kelib chiqishini diniy afsonalarga bog‘lab izohlaydilar. Xususan, Qashqadaryolik xalq baxshisi Hazratqul Xudoyberdi o‘g‘lining aytishicha, qo‘ng‘irot urug‘iga mansub o‘zbeklar udumiga ko‘ra, har yili ko‘klamda 4-5 kg bug‘doyni undirib, to‘yib, sharbati olingan. Bir qozonga o‘sha sharbatni solib, un aralashtirib, bir kecha-kunduz qaynatganlar va sumalak pishirganlar. Bu taom *“Bibi Fotimanin goshi”* deb atalarkan. K.A.Zadixino, T.Qilichev kabi olimlarning fikrlariga qaraganda, Xorazmliklar ham sumalakka Bibi Fotima bosh-qosh bo‘lib turadi, agar tongotar mahali sumalakka besh barmog‘ini urmasa, u qiyomiga yetib pishmaydi, deb irim qilisharkan.

Ma’lumki, sumalakka tuz solinmaydi, hatto sumalak haqidagi topishmoqda ham (“Tuzsiz pishgan oshni ko‘rdim”) shunga ishora bor. Sumalakka tuz solinmasligi va uning quyosh chiqar pallasi suzilishi, aslida ajdodlarimizning qadimg udumlariga aloqador. Bu udumlar allaqachonlar unut bo‘lib ketgan, natijada odamlar sumalak pishirish bilan bog‘liq bu an‘analarning ma’nosini afsonaviy tarzda tushuntira boshlaganlar. Naql qilishlaricha, tongga

yaqin sumalakni kovlayotgan momolarni uyqu elitib, ular pinakka ketgan paytda osmonu falakdan uchib kelgan maliykalar qozonga tuztashlab ketisharmish. Bu ham bir afsona, xolos. Juda qadim zamonlarda yaratilgan an'analar davrlar o'tishi bilan o'zgarib, ba'zilari unutilib, boshqalari yangilanib boraveradi. Sumalakning tuzsiz pishishi bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlar unutilgandan so'ng, odamlar bu odatni ilohiy mo'jizalarga bog'laganlar. Aslida sumalak pishirish udumi O'rta Osiyo xalqlarining islomdan burungi an'analari sirasiga kiradi.

“SUMALAK SAYLI” SSENARIYSI

(Surxondaryo viloyati misolida)

<p><i>Sahna</i></p> <p><i>Surxondaryoning</i></p> <p><i>o'zigaxos milliy</i></p> <p><i>qadriyatlariga</i></p> <p><i>asoslanib, jihozlar va</i></p> <p><i>matolar bilan</i></p> <p><i>bezatilgan. Sahnaga</i></p> <p><i>jarchilar kirib keladi.</i></p>	
Jarchilar:	Aha-hey! Odamlar-u odamlar eshitmadim demanglar, bugun Qo'ng'iroq qishlog'ida To'tigul onamizning xonadonida sumalak sayli bo'lmoqda. Kattalar izzatda, yoshlар xizmatda. Aha-hey!!!
<i>Momo sahnaga</i>	
<i>jarchilar yoniga kirib keladi.</i>	
Momo:	Ey, bolalarim doshqozonni qo'ydingizmi, sumalagimiz bug'doyi shunday chiroyli unibdiki bug'downi yanchish kerak qani qizposhsholar

	kelinglar.
Nigora:	Voy, momojon nimaga hamma qizil chiroylik ko‘ylak kiyib olgan, nimaga qo‘lingizga qizil ip bog‘lab olgansiz?
Momo:	Voy bolajonima, sumalagimiz chiroyli, ranglari qip-qizil bo‘lsin deb ota-bobolarimiz qizil ko‘ylaklar kiyishgan. Qizlar esa qo‘liga qizil matodan bog‘lab olishgan.
Nigora:	Momojon sumalak so‘zi qayerdan paydo bo‘lgan?
Momo:	Har bir udumni o‘z tarixi bo‘ladi qizim. Mana eshitgilar: “Bir kuni bibi Fotimaning bolalari och qolishdi. Ovqat pishirib beray desa, uylarida qozonga solguvlik hechvaqo yo‘q ekan. O‘sanda qish tugab, endi ko‘klam ko‘katlari yer bag‘irlab, bosh ko‘targan vaqt ekan. Bibi Fotima hovlisining bir chetiga, kuzda bir hovuch don sepgan ekanlar. Qarasalar maysalar ko‘karib, unib qolgan ekan. Darrov shu maysalarni o‘rib kelib, maydalab, qozonga solib, surpadan qoqishtirib olingen bir siqim unni ham qo‘shib yaxshilab aralashtirib, ustidan suv qo‘yib, qozon tagiga o‘t qalabdilar. Biroz qozonni kovlab o‘tirgandan keyin, bolalariga qo‘silib, Bibi Fotima ham u xlabel qolibdilar. O‘sanda osmondan o‘ttizta farishta yordamga kelib, qozonni qopqog‘ini ochib, avval qozonga tuz sepib, keyin ertalabgacha qozonni kovlab chiqibdilar. Ertalab Bibi Fotima uyg‘onsalar qozonda shirin bir taom turgan emish. Bu taomni ilohiy ta’mi bormish. Shu taom bilan bolalarini

	ochlikdan saqlab qolibdi. Mana bolalarim rivoyatni ham eshitib sumalak qanday paydo bo‘lganini ham bilib oldingizlar. Kelinglar, endi birgalikda bismilloni aytib pirlarimizga atab chalpakkarni pishiraylik.
<i>Momo chalpakkarni pishirib bo‘lgandan so‘ng hamma birgalikda sumalak qo`shig`ini aytishadi.</i>	
	Sumalakni boshladik yo, bismillo, Qozonga un, yog‘ tashladik yo, bismillo, Fotimani yodga olish farzdir bizga, Har bahorda sumalagim qarzdir sizga. Qozonimiz atrofida qirq farishta, Shu sayilda qirq farishta yordir bizga. Zamon-zamon atalgandir bu sermalak, Doim bizga hamroh bo‘lsin qirqta malak.
Momo:	Bolalarim, maysalardan endi sharbat tayyorlaymiz.
<i>Momo o‘g‘il- qizlarga maysa bilan bog‘liq marosimni tushuntirib sahna ortiga boshlab ketadi. Nigora hamda Rustam sahnada qolib bir-biriga she’riy topishmoq aytishadi.</i>	
Rustam :	Nina uchi yaltiroq, buni toping dilbarim.
Nigora:	Nina uchiyaltiroq, olov degani emasmi?

Rustam :	Sassiq ko‘lda it hurar, buni toping, dilbarim.
Nigora:	Sassiq ko‘lda it hurar suvbaqasi emasmu?
Rustam :	Taqir-shaqir taxtiravon buni toping dilbarim.
Nigora:	Taqir-shaqir taxtiravon beshik degani emasmi?
Rustam :	Ichidagi mehribon buni toping dilbarim.
Nigora:	Ichidagi mehribon bola degani emasmu?
<i>Nigora Rustamni gaplaridan uyalib sahnadan chiqib ketayotganda momo kelib qoladi.</i>	
Momo:	Nigora qizim, qayerlarda yuribsan? Qani tez borib bir ko‘zaga sharbat olib chiqqin.
Nigora:	Momojon, u nimaga kerak?
Momo:	Voy bolajonima, sen olib kelavergin ungacha men sizlarga ajdodlarimizdan qolgan yana bir udum haqida aytib beraman. Hamda qanday bo‘lishini ham ko‘rsatib beraman. Qani qizlar, uzugingizni ko‘zaga tashlanglar. Ko‘zani yaxshilab aralashtiramiz, qani Asliddin bolam kel, ko‘zani ichidan uzuklarni birin ketin menga olib berchi. Sharbat suviga yuvilgan uzuklar baxt keltiradi.
Asliddin:	Mana momojon.
Momo:	Qani, qani, qani, bu uzuk kimniki ekan, qizlarim?
Yulduz:	Momojon, qo‘lingizdagи uzuk Nigoraxonniki-Y.
Momo:	Nigoraxon qizim, baxtli bo‘ling. Yaxshi oilaga kelin bo‘ling. Qani bolalarim, Nigora qizimga atab bir qo‘shiq kuylab beringlar-chi.
Yigitlar:	Xo‘p bo‘ladi, momojon.

	Sumalagim qaynaydi, yalla jonim, yalla, Momolarim kovlaydi, oromijonim, yalla. Yigitlari kuylaydi, yalla jonim, yalla, Qizlar kulib o‘ynaydi, yalla jonim, yalla.
Momo:	Barakalla bolalarim. Qani Asliddinjon bolam u ana uzukni olib berchi.Qani ko‘raychi, buuzuk Yulduz qizimni uzugi bo‘lsa kerak shundaymi,qizlar?
Asliddin:	Ha, to‘g‘ri, momojon.
Momo:	QizimYulduz, sharbatda chayilgan uzugingdek kelgusidagi oilangda ham hayoting sharbat kabi shirin bo‘lsin,qani bolalarim Yulduz qizim uchun ham bir qo‘shiq aytib beringlarchi.
Qizlar:	Daraxtlar kurtak yozar, yalla jonim, yalla, Qizlar tol bargak taqar, yalla jonim, yalla. O‘zbegimning qizlari, yalla jonim, yalla, Shirin suhan so‘zlari, yalla jonim, yalla.
Momo:	Qizim Zarnigor, mana bugun xonadonimizda sumalak sayli bo ‘layapti. O‘ylagan jamiki yaxshi niyatlaringga erishgin. Zarnigor qizim uchun ham bir qo‘shiq aytib beringlarchi.
<i>Yigit qizlar qo‘shiq aytib, raqsga tushadilar. Momo barcha ko‘zaga solingan uzuklarni olib kelgusi yilga yaxshi tilaklar bildiradi.</i>	
	“Vaq- vaqa sumalak” <i>qo‘shig‘i, raqsida qizlar.</i>

	<p>Tayyor bo‘ldi doshqozon Hohlagan odam kelsin Sumalak eyman degan Kapgirini ob kelsin.</p> <p>Naqorot:</p> <p>Qozon vaq vaq qaynaydi Uy egasi uxlaydi Sumalakni ko’vlagan Qizlar qo‘sish quylaydi Qozonga yog‘ tushadi Lochira ham pishadi Saratonda urishgan Nazro‘zda topishadi</p> <p>Naqorot:</p> <p>Vaq- vaqa sumalak vaq- vaqa.</p> <p>Mana bolalarim, sumalagimizni ham qozonimizga solib bo‘ldik, endi damga qo‘yamiz. Ertaga tongda ochamiz, Farishtalar sumalagimizga nimani rasmini chizarkan. Men sizlarga sumalak bilan bog‘liq rivoyatlarni so‘zlab beraman tonggacha bolalarim. Yuringlar, uy ichiga kiraylik.</p>
<i>Hamma momo bilan sahnadan chiqib ketadilar.</i>	

XULOSA

Ma’lumki, o‘zbek folklorshunosligi o‘zining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam tashlab, odimlab bormoqda. Dastlabki qadamlarini xalq ijodini aniqlash va ularning repertuarini yozib olish, turli janrlarni tadqiq etishdan boshlagan folklorshunosligimiz filologik yo‘nalishdagi mustaqil fan tarmog‘i sifatida

shakllanish barobarida xalqimizning betakror ijodini dunyo miqyosida tanitishga ham erishdi. Mana shu davrda xalq dostonlari, ertak va maqollari, topishmoq va latifalari, afsona va naqlari, qo'shiq va og'zaki drama janrlari, marosim folkloriga aloqador ko'plab janrlar tadqiq etildi.

An'analar xalqimizning o'zi kabi umrboqiy, qalbi misol mehrydaryo va jonbaxshdir. Yurtimizning har bir go'shasidagi o'ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnat bilan bog'liq an'analar, momolarning mehr bulog'idan qaynab chiqqan orombaxsh alla-yu, olqishlar mavjud.

O'zbekiston xalqlarining tarix sinovidan o'tgan bayram marosimlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarni, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarni aks yettiradi. Bugungi kunda folklor san'atining serjilo chamanlari gurkirab rivojlanib, xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, ma'naviy dunyosi kundan-kunga boyib bormoqda. Milliy ruh, milliy g'uruming tiklanishi bu rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan tabiiy jarayondir. Milliy folklor san'ati an'analarini rivojlantirib, ularni yosh avlod turmush tarziga singdirib borish shu jarayonning muhim qirrasidir. Hozirda mavjud folklor-etnografik ansamblari xalq qalbining oynasi sanalmish xalq ijodiyoti namunalari, turfa xil marosim, an'analarini orqali milliy qadriyatimiz, qadimiy an'ana va marosimlarimizni tiklab, rasm-rusm va udumlarimizni o'z dasturlarida namoyish yetish, kelajak avlodga qoldirish uchun harakat qilmoqdalar.

Shu bois folklor-etnografik ansamblari ota-bobolarimiz asrlar bo'yи asrab avaylab kelgan qadriyatlar orqali istiqlol mafkurasini yaratishga, uni yoshlar turmush tarziga singdirishga yordam berib, kelajagi buyuk o'zbek yurtining haqiqiy egalari bo'lgan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek xalqining asrlar mobaynida xalq og'zaki ijodi xazinasi g'oyat boydir, u xalqimizning ma'naviy madaniyatining durdonasi, gavhari hisoblanadi. U asrlar osha kelgusi avlod tarbiyasida ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

1. Jo‘rayev M. O‘zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar. – Toshkent.; Fan, 1991. – 153 b.
2. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsum marosim folklori. – Toshkent.; Fan, 2008.
3. Jo‘rayev M., Tohirov O‘. Ostonasi tillodan. (“Ostonasi tillodan” folklor ekspeditsiyasi ilmiy safarnomasi). 1-qism. – Toshkent: Meros, 2003. – 78 b.¹
4. Jo‘rayev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. – Toshkent. 2008.
5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 304 b.
6. Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq ijodi xrestomatiyasi. Toshkent: Aloqachi, 2008.- 359 b.
7. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995. – 156 b.
8. Ikki ko‘ngil bir bo‘lsin (Yor-yorlar) / Tuzuvchilar: M.Jo‘rayev, L.Xudoyqulova. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. B. 157
9. Sarimsoqov B. Marosim folklori. - T.,Fan, 1986.
10. Sayfullayev B. va boshqa. Nomoddiy madaniy meros va folklor ijro san’ati an’analari. O‘quv qo‘llanma -T.: 2017.
11. To‘y muborak, yor-yor. O‘zbek xalq nikoh to‘yi marosimi qo‘shiqlari. To‘plovchi O. Safarov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 160 b.
12. Ergashev A. Qashqadaryo, Surxondaryo dostonchiligi. – Toshkent: Fan, 2008. – 256 b.
13. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: Fan, 2006. – 122 b.
14. Qoshu ko‘zi pilikday (“Kelinsalom”lar) /To‘plib, nashrga tayyorlovchi: M.Jo‘rayev. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. –240 b.
15. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari.– T.,SHarq, – 2002.

16. Qurbonova N. Xorazm to‘y qo‘shiqlari: Filol. fanlari nomzodi diss.
avtoref. – Toshkent, 1998. – 27 b.

Internet materiallari

17. <http://www.ziyouz.com> / Internet materiallari.

MUNDARIJA

Kirish.....
O‘quv fanining maqsad va vazifalari.....
Folklor asarlarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari.....
Folklor asarlarini sahlanashtirish usullari.....
O‘quv materiallari.....
Beshik to‘yi.....
Sunnat to‘yi marosimi.....
Xinobandon marosimi.....
Kelin salom marosimi.....
To‘qqiz taboq marosimi.....
Yuz ochdi marosimi.....
Kuyov o‘tirsin marosimi.....
Kuyov chiqdi marosimi.....
Boychechak xabari udumi.....
Guli surx sayli.....
Sust xotin marosimi.....
Sumalak sayli udumlari.....
Xulosa.....
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati.....